



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 йил 8-апрель, № 71 (8966)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



PARLAMENTARIZMNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-aprel kuni Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida bir qator parlamentlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Rossiya delegatsiyasiga rahbarlik qilayotgan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko'ni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi. Parlamentlararo aloqalar samarali bo'layotgani yuksak baholandi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlar

uchrashuv avvalida O'zbekiston yetakchisiga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasidagi do'stlik, strategik



faol pallaga kirgan. Madaniy-gumanitar tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Erishilgan kelishuvlar jirosini nazorat qilish va bo'lajak oliy darajadagi sammitlar uchun yangi takliflar ishlab

chiqish maqsadida parlamentlar o'rtasida yaqin amaliy hamkorlikni va faol almashinuvlarni davom ettirish muhim ekanini ta'kidlandi.

Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya

Kochanova bilan uchrashuvda ko'p qirrali O'zbekiston - Belarus munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

(Davomi 2-betda.)



rahbari Valentina Matviyenko'ni tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Federatsiya Kengashi Raisi O'zbekiston yetakchisiga samimiy minnatdorlik bildirib, Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi

ijrosi ustidan parlament nazorati bo'yicha faol hamkorlikni davom ettirish muhim ekanini ta'kidlandi.

Savdo-iqtisodiy sheriklik sur'atini ta'minlash, sanoat kooperatsiyasi loyihalari va gumanitar almashinuv dasturlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Ozarbayjon Respublikasi Milliy Majlisi Raisi Sohiba Gafarova

sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Iqtisodiy hamkorlik yili doirasida birgalikda samarali ishlar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya loyihalari



VIETNAM BILAN AMALIY SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-aprel kuni mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Vietnam Milliy majlisi Raisi Chan Txan Man boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida delegatsiya rahbari O'zbekiston yetakchisiga Vietnam Kommunistik partiyasi Bosh kotibi To Lam, Prezidenti Luong Kuong va Bosh vaziri Fam

Min Tinning salomini yetkazdi. O'zbekiston bilan Vietnam o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni, eng avvalo,

savdo-iqtisodiyot va investitsiya sohalarida yanada rivojlantirish masalalari batafsil ko'rib chiqildi. (Davomi 2-betda.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ma'buot xizmati suratlari.

KO'P QIRRALI VA UZOQ MUDDATLI MUNOSABATLAR BARDAVOM BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-aprel kuni Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etdi va nutq so'zledi.

So'zining avvalida Prezidentimiz so'nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida to'qnashuvlar, ekologik va texnologik fojialar, iqtisodiy inqirozlar, "savdo urushlari", terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib borayotganini qayd etdi.

Bunday o'ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta'minlashda parlamentlar ishtiroki va ta'sirini oshirishni zamonning o'zi talab etmoqda.

Vakillik diplomatiyasini amalga oshirish, dolzarb masalalarni xalqlar va davlatlarning umumiy manfaatlarini asosida tizimli hal etishda Parlamentlararo Ittifoq nufuzli va eng

yaqin ko'p tomonlama institutga aylanganini alohida ta'kidlamochim, — dedi davlatimiz rahbari.

Mamlakatimiz yetakchisi o'z nutqida ayni paytda mamlakatda kuchli va mas'uliyatli parlamentni barpo etish, samarali parlament diplomatiyasini tatbiq qilish uchun keng sharoitlar yaratib berilayotgani, jumladan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasida parlament institutini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Keyingi yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat va davlat hayotidagi o'rnini oshirishga qaratilgan yigirmadan ziyod qonunlar qabul qilindi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-ASSAMBLEYASIDAGI NUTQI

Hurmatli Tuliya Ekson Xonim oliyalari! Hurmatli Martin Chungong Janobi oliylari! Hurmatli parlamentlar rahbarlari va a'zolari!

Xonimlar va janoblar! Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida ishtirok etish uchun dunyoning barcha qit'alaridan kelgan nufuzli delegatsiyalarni O'zbekiston zaminida samimiy qutlashdan g'oyat xursandman.

O'z safida 181 ta milliy parlament va 15 ta mintaqaviy uyushmani birlashtirgan Ittifoqning assambleyasi ilk marta Markaziy Osiyo mintaqasida bo'lib o'tmoqda. Anjumanning azim poytaxtimiz — Toshkent shahrida o'tkazilayotgani bizga ulkan iftixor bag'ishlaydi.

Bunday yuksak ishonch va ehtiromni biz

yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lami demokratik islohotlar, parlamentarizm va vakillik hokimiyatini rivojlantirish borasida erishilayotgan katta natijalarning e'tirofi, deb qabul qilamiz.

Men ham 15 yil davomida parlament a'zosi bo'lganman. Dunyoni tinch-osoyishta, jamiyatlarni yanada farovon qilishga qaratilgan oliyanob faoliyatingiz naqadar mas'uliyatli ekanini yaxshi bilaman va tushunaman.

Sizlar — bamosoli xalqlarni bir-biriga bog'lovchi mustahkam do'stlik ko'prigisiz. Sizlar — odamlarning dardu tashvishi va muammolarini eng quyi tizimdan boshlab, kerak bo'lsa, mintaqaviy va xalqaro miqyosga olib chiqishga, ularga samarali yechim topishga qodir bo'lgan qudratli kuchsizlar.

Albatta, sizlar o'z xalqlaringizning xohish-irodasini namoyon etib, milliy taraqqiyot modellarini ishlab chiqishda, zamonaviy xavf-xatarlarga munosib javob berishda katta rol o'ynamoqdasiz.

Fursatdan foydalanib, Parlamentlararo Ittifoq rahbariyatiga, tashkilotga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning qonunchilik organlari hamda xalqaro parlament uyushmalari vakillariga chin didan samimiy tashakkur izhor etaman.

O'zbekistonga xush kelibsiz, aziz mehmonlar!

Hurmatli assambleya ishtirokchilari! Sir emas, so'nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida qurolli to'qnashuvlar, ekologik va texnologik fojialar, iqtisodiy inqirozlar, "savdo urushlari", terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib bormoqda.

Bunday o'ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta'minlashda parlamentlar ishtiroki va ta'sirini oshirishni zamonning o'zi talab etmoqda.

Vakillik diplomatiyasini amalga oshirish, dolzarb masalalarni xalqlar va davlatlarning umumiy manfaatlarini asosida tizimli hal etishda Parlamentlararo Ittifoq nufuzli va eng yirik ko'p tomonlama institutga aylanganini alohida ta'kidlamochim.

Ittifoqning Birlashgan Millatlar Tashkilotida doimiy kuzatuvchi maqomiga ega ekanini global barqarorlik va hamjihatlikka qo'shayotgan hissasining ifodasidir. Bugungi anjumanda 140 ga yaqin davlatlardan 2 mingdan ziyod ishtirokchilar qatnashayotgani ham fikrimning yorqin dalilidir.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING PARLAMENTLARARO ITTIFOQNING 150-ASSAMBLEYASIDAGI NUTQI

Bizning tashabbusimiz bilan assambleya "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzusida o'tkazilayotgani albatta chuqur ramziy ma'noga ega.

Tahlillarga ko'ra so'nggi o'ttiz yilda jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 4, 5 barobarga ortgan. Lekin, afsuski, insoniyatning kambag'al qatlamlari daromadlari deyarli o'zgarmagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 2030-yilga borib dunyo aholisining 575 million nafari qashshoqlikda umr kechiradi. 84 million bola esa ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

O'z-o'zidan ravshanlik, bu holat iqtisodiyot va jamiyatga katta zarar yetkazadi, ijtimoiy-iqtisodiy institutlar faoliyatini zaiflashtiradi, pirovard natijada odamlarning imkoniyatlarini cheklaydi.

Albatta, bunday tengsizlikning asl sabablarini aniqlash va uning oqibatlariga qarshi kurashish barchamizning asosiy vazifamizdir.

Ishonaman, ushbu yo'nalishda davlatlarning vakillik organlari o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni yo'lga qo'yish va yanada kengaytirish umumiy taraqqiyotimizga munosib hissa qo'shadi. Bu borada parlamentlar eng yaxshi an'ana va ilg'or tajribalarni ishga solish va almashish, o'zaro sa'y-harakatlarni birlashtirgan holda bor intellektual salohiyati va kuchini to'liq safarbar qilishga umid qilaman.

Barchangizga ana shunday sharafli ishda ulkan yutuq va omdalar tilayman.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari va a'zolari! Bugungi kunda Yangi O'zbekiston ortga qaytmas demokratik islohotlar va pragmatik tashqi siyosat yo'lidan dadil qadam bosib, dunyo hamjamiyati bilan ochiq va jadal muloqot olib bormoqda.

Biz mamlakatimizda kuchli va mas'uliyatli parlamentni barpo etish, samarali parlament diplomatiyasini tatbiq qilish uchun keng sharoitlar yarataymiz.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida parlament institutini rivojlantirishni muhim vazifa sifatida alohida belgiladik. So'nggi yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat va davlat hayotidagi o'rini oshirishga qaratilgan 20 dan ziyod qonunlar qabul qilindi.

Ayniqsa, 2023-yili umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi Konstitutsiyada parlament vakolatlari keskin oshirildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Sud, korupsiyaga qarshi kurash va raqobat organlarini shakllantirish bo'yicha Prezidentning qator vakolatlari qonun chiqaruvchi

hokimiyatga o'tkazildi. Parlamentning Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ustidan nazorat mexanizmlari yanada kuchaytirildi.

Bu o'zgarishlarga mos tarzda hududlarimizda ham xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining vakolatlari kengaytirildi. Jumladan, 30 dan ortiq vakolatlar mahalliy Kengashlarga o'tkazildi va bu jarayonlar izchil davom ettirilmoqda.

Milliy parlamentimizda xotin-qizlarning ulushi bugungi kunda 38 foizga yetdi. Mazkur ko'rsatkich Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuksak e'tirof etilib, Osiyo mintaqasida so'nggi o'ttiz yilda eng yuqori o'sish sifatida baholanganiga bizga alohida mamnuniyat bag'ishlaydi.

Bundan tashqari, 2021-yilda Oliy Majlis palatalari qoshida ilk bor yoshlar parlamentlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ayni paytda milliy parlamentimiz 100 ga yaqin xorijiy hamkorlari bilan yaqin aloqalar o'rnatgan. 80 ta qo'shma do'stlik guruhlari va komissiyalari samarali ishlayapti.

O'zbekiston parlament yo'nalishida global ahamiyatga molik bo'lgan qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Ittifoq bilan hamkorlikda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun har ikki yilda Parlamentlararo global hamkorlik forumi o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekiston vakillari Osiyo Parlamentlari Assambleyasi, Markaziy Osiyo parlamentlari forumi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament Assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasi va boshqa platformalarga faol ishtirok etmoqda.

Umuman, bugungi kunda vakillik organlarimiz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya va kambag'allikni qisqartirish, gender tenglikni ta'minlash, korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ham o'z zimmasiga katta mas'uliyat olgan.

Ushbu ezgu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun parlamentimizda yetarli salohiyat, yuksak tafakkur va boy tajribaga ega, saylovchilarning mustahkam ishonchini qozongan jonkuyar va fidoyi xalq noiblari faoliyat yuritmoqda.

Hurmatli nomlari va janoblari! Jahonda yuz berayotgan bugungi global o'zgarishlar Parlamentlararo Ittifoq va milliy

parlamentlarimiz oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston ushbu Tashkilotning to'laonli a'zosi sifatida uning barcha tuzilma va forumlari ishida faol ishtirok etib kelmoqda. Global kun tartibidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha sermahsul amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yganmiz.

Ijroatingiz bilan quyidagi masalalarga alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

Birinchi. Jahonning turli mintaqalaridagi nizolar global va mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda.

O'zbekiston har qanday ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat diplomatiya va tinch muzokaralar yo'li bilan hal etishning qat'iy tarafdori ekanini yana bir bor ta'kidlamog'chiman.

Umid qilamizki, Ukraina atrofidagi vaziyat bo'yicha boshlangan muzokaralar jarayoni o'zining ijobiy natijasini beradi.

Eng og'riqli muammolarga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi va rezolyutsiyalari asosida yechim topish muhim, deb hisoblaymiz.

Jumladan, Falastin – Isroil nizosining yagona va adolatli yechimi "ikki xalq uchun – ikki davlat" tamoyilini ro'yobga chiqarishdan iboratdir.

Bizga qo'shni bo'lgan Afg'oniston haqida to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. Ushbu mamlakatning xalqaro maydonda yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik, amaldagi hukumat bilan konstruktiv muloqot o'rnatish, Afg'onistonga Markaziy Osiyo mintaqasining ajalmas qismi va yangi imkoniyatlar makoni sifatida qarash lozim, deb hisoblaymiz. Bu borada parlamentlarning ko'magiga ishonamiz.

Umuman olganda, O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotini universal va muqobil yo'l yagona global tuzilma sifatida e'tirof etadi. Biz bu borada Bosh kotib Antoniu Guterrishning mazkur xalqaro tashkilotni chuqur isloh qilish, uning salohiyatini oshirish bo'yicha olib borayotgan tizimli sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz.

Shu bilan birga, Yevrosiyo guruhining Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'labaning 80 yilligiga bag'ishlangan bayonotini to'la o'lqishlaymiz.

Ikkinchi. Davrimizning o'tkir muammosiga aylangan, sayyoramiz taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'layotgan iqlim o'zgarishlari doimo diqqatimiz markazida bo'lishi kerak.

Chunki uning aynanchi oqibatlari, eng avvalo, rivojlanayotgan mamlakatlarga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Parij bitimi doirasida va uqlerod neytralligiga erishish borasida o'z zimmamizga olgan majburiyatlarni to'liq bajarish har qachongidan ham muhimdir.

Bu masalalarni yaqinda Samarqandda bo'lib o'tgan xalqaro iqlim forumida ham atroflicha muhokama qilidik.

Davlatlarning iqlim siyosati bo'yicha ilg'or tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, qayta tiklanadigan energiya manbalari va "yashil" texnologiyalarga o'tishni rag'batlantirish parlamentlarning muhim vazifasiga aylansa, albatta, salmoqli yutuqlarga erishamiz.

Iqlim o'zgarishi mavzusi assambleyaning kun tartibidagi bosh masalalardan biri sifatida doimiy o'rinni olishi kerak, deb hisoblaymiz.

Uchinchi. Xotin-qizlar huquqlarini qat'iy qaror toptirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir.

Tahlillarga ko'ra iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ayollarning erkaklar bilan teng ishtiroki ta'minlansa, jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 26 foizga o'sadi. Dunyo miqosida ayol deputatlarining ulushi 1995-yildagi 11, 3 foizdan joriy yilga kelib 27, 2 foizga ko'tarilgan albatta quvonarli holdir.

Jamiyat boshqaruvida ayollar faolligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ta'sirchan choralar yordamida, hech shubhasiz, yangi natijalarga erishamiz.

So'nggi yillarda yurtimizda Birlashgan Millatlar Tashkiloti institutlari va Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda Osiyo xotin-qizlar forumi va Jahon parlamentlari ayol rahbarlarining 14-sammiti samarali o'tkazilganini alohida ta'kidlamog'chiman.

Shu bois bizning tashabbusimiz bilan ilgari surilayotgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Osiyo xotin-qizlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar faolligini oshirish to'g'risida"gi rezolyutsiyasini qo'llab-quvvatlashingizga umid qilaman.

To'rtinchi. Yoshlarning parlament faoliyati bilan bir qatorda jamiyat hayotining barcha jabhalarida to'laonli ishtirok etishi uchun ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish o'ta dolzarb masaladir.

Parlamentlar uchun yangi avlodni tarbiyalash, bu borada samarali xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kelajagimizning muhim omilidir. Shu bois milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga yoshlarni faol jalb etib, doimiy muloqotni kuchaytirish zarur, deb o'ylayman. Bu borada Parlamentlararo Ittifoq tizimi doirasida Yoshlar parlamentlari global platformasini tashkil etish va uning ta'sis forumini O'zbekistonda o'tkazishni taklif qilamiz.

Beshinchi. Har bir insonning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, xalqaro standart va me'yorlar asosida sifatli xizmatlar ko'rsatish har qachongidan ham dolzarb masaladir.

Biz O'zbekistonni ijtimoiy davlat, deb e'lon qilib,

aholining har tomonlama himoyasini ta'minlashni siyosatimizning ustuvor yo'nalishi etib belgiladik. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshiryapmiz.

Oxirgi sakkiz yilda 7 milliondan ziyod aholi kambag'allikdan chiqarilib, uning darajasi 35 foizdan 8, 9 foizga tushirildi. Joriy yilda bu ko'rsatkichni 6 foizga pasaytirishni maqsad qilganmiz.

Shu yil sentyabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan kambag'allikni qisqartirishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishida davlatlaringiz parlamentlari vakillarini faol ishtirok etish uchun taklif qilamiz.

Yana bir muhim masala. Hozirgi kunda barcha jabhalarga keng kirib kelayotgan sun'iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirishni bugungi zamonning o'zi bizdan talab etmoqda.

Sun'iy intellektidan foydalanish etkasi bo'yicha model qonun ishlab chiqilsa, ushbu innovatsion huquqiy asos dunyo miqosida tez rivojlanayotgan ushbu sohani samarali tartibga solishda barcha davlatlar uchun o'ziga xos namuna bo'lar edi.

Hurmatli parlamentlar rahbarlari va a'zolari!

Bizning barcha taklif va tashabbuslarimiz Parlamentlararo Ittifoqning Strategiyasi maqsadlariga to'la mos ekani bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, yondashuvlarimiz bugungi tarixiy assambleya yakunlari bo'yicha qabul qilinadigan Toshkent deklaratsiyasida ham o'z ifodasini topadi, deb ishonaman.

Albatta, dunyodagi hech bir davlat va jamiyat faqat ko'plab qonun yoki qarorlar qabul qilish bilan rivojlana olmaydi. Barchamiz bu yo'lida birlashib, qonun ijodkorligi ruhini kuchaytirib, bor bilim va tajribamizni yagona maqsad sari safarbar etish orqali umumiy maqsadimizga erisha olamiz.

Assambleya doirasida o'tayotgan 70 ga yaqin turli tadbir va debatlarida parlamentlar oldida turgan eng asosiy vazifalar yuzasidan atroflicha fikr almashiladi hamda istiqbolli rejalar belgilab olinadi, deb ishonaman.

Qabul qilinadigan barcha qarorlar esa ko'p qirrali va uzog' muddatli hamkorligimiz tarixida yangi sahifa ochadi.

Aziz do'stlar! Xalqaro hamjamiyatning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlash hamda yuksak demokratik qadriyatlarini ilgari surish yo'lidagi ezgu faoliyatingizda barchangizga mustahkam sog'liq va tuganmas kuch-g'ayrat bor bo'lsin!

Assambleya ishiga katta yutuq va muvaffaqiyatlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

PARLAMENTARIZMNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Uchrashuv avvalida Belarus delegatsiyasi rahbari O'zbekiston yetakchisiga Prezident Aleksandr Lukashenkoning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Tovar ayirboshlash hajmi jadal ortib borayotgani, sanoat va qishloq xo'jaligida kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani, hududlar o'rtasidagi hamkorlik samarali bo'layotgani, madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi almashinuvlar faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Faol parlamentlararo muloqotni davom ettirish, shu jumladan, oliy darajada erishilgan kelishuvlarning parlament nazoratini ta'minlash va o'z vaqtida bajarilishiga ko'maklashish muhim ekani ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlari delegatsiyalari rahbarlarini qabul qildi.

Qo'shma uchrashuvda Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Majlisi Raisi Yerlan Koshanov, Qirg'iz Respublikasi Joqorgu Keneshi Torag'asi Nurlanbek Turg'unbek o'g'li, Tojikiston Respublikasi Majlisi namoyandagon Majlisi Oli Raisi Fayzali Idizoda va Turkmaniston Majlisi Raisi Dunyogo'zal Gulmanova ishtirok etdi.

Yuqori martabali mehmonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'z mamlakatlari yetakchilarining samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdilar, mintaqamizda ilk bor o'tkazilayotgan ushbu xalqaro tadbirning ahamiyatini alohida ta'kidladilar.

Qardosh mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik, yaxshi o'q'shnicilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

4-aprel kuni Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti va Iqlim forumining samarali natijalari yuksak baholandi.

Oliy va yuqori darajadagi faol muloqotlar alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Yaqinda mintaqada o'tkazilgan uchrashuvlar, jumladan, chegaralarni delimitatsiya qilish masalalari to'liq tartibga solingani hamda Xo'jand shahrida O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolangan tarixiy ahamiyatga ega ekani ta'kidlandi.

Keyingi yillarda mintaq mamlakatlari o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi ko'p karra

oshdi, chegaradagi savdo zonalarini tashkil etilmoqda.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, shu jumladan, mamlakatlarimiz hududlarida kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Madaniyat va ta'limda tadbirlarga boy dasturlar ro'yobga chiqarilmoqda.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz va xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, qo'shma kooperatsiya tashabbuslari va loyihalarini ilgari surish, hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvni kengaytirish maqsadida parlamentlararo muloqotni, shu jumladan, qo'mitalar darajasida mustahkamlash muhim ekani ta'kidlandi.

Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv avvalida Turkiya parlamenti raisi davlatimiz rahbariga Prezident Rejep Tayyip Erdog'anning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi do'stlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki tomonlama hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro tovar ayirboshlash va investitsiya ko'rsatkichlari o'smoqda, muvaffaqiyatli qo'shma loyiha va korxonalar soni, to'g'ridan-to'g'ri parvozlar ko'paymoqda. Ikki davlat va xalqni yaqinlashtirishga qaratilgan muhim madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Parlamentlararo aloqalarini yanada rivojlantirishga, O'zbekiston – Turkiya sherikligining yangi kun tartibini shakllantirish, hududlararo hamkorlikni faollashtirishda, shuningdek, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan nazoratni ta'minlashda do'stlik guruhlarining ishtirokiga alohida e'tibor qaratildi.

Pokiston Islom Respublikasi Senati Raisi Yusuf Rizo G'iloniy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda O'zbekiston – Pokiston strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Uchrashuvda yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Prezident Asif Ali Zardariy va Bosh vazir Shahob Sharifning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zaro savdo hajmi, qo'shma korxonalar va to'g'ridan-to'g'ri parvozlar soni ortmoqda, ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokida biznes forumlari va ko'rgazmalar muntazam o'tkazilmoqda.

Yaqinda O'zbekistonga amalga oshirilgan oliy darajadagi tarixiy tashrif davomida erishilgan kelishuvlarning samarali ijrosini ta'minlashda parlamentlar rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport sohasidagi ustuvor loyiha hamda dasturlarni jadallashtirish, shu jumladan, Transafg'on yo'li qurilishini ilgari surish, shuningdek, hududlararo hamkorlik va gumanitar almashinuvni kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Hindiston Respublikasi parlamentining quyi palatasi – Lok Sabha Spikeri Om Birla boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida spiker davlatimiz rahbariga Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston – Hindiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ko'p qirrali hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Keyingi yillarda tovar ayirboshlashda barqaror o'sish kuzatilmoqda, muvaffaqiyatli kooperatsiya loyihalari ko'paymoqda, aviaqatnovlar kengaymoqda.

Energetika, sog'liqni saqlash, farmatsevtika, IT, qishloq xo'jaligi kabi sohalarda loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda Hindistonning 4 ta universiteti filiallari faoliyat yuritmoqda.

Subhatda yaqin parlamentlararo almashinuvlarni, sohaviy qo'mitalar darajasida faol aloqalarini yo'lga qo'yish, do'stlik guruhlari va yoshlar platformalarini tashkil etish, shuningdek, ikki mamlakat hududlarining salohiyatini samarali ishga solish muhimligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev arab davlatlari parlamentlari rahbarlarini qabul qildi.

Uchrashuvda Arab parlamenti Raisi Muhammad bin Ahmad Al-Yamahiy, Bahrayn parlamenti Vakillar kengashi Spikeri Ahmad bin Salmon Al-Musallam, Misr Vakillar palatasi Spikeri Hanafiy Ali Al-Jabaly, O'mon Sho'ro kengashi Raisi Xolid bin Hilol Al-Ma'avali, Qatar Sho'ro kengashi Raisi Hasan bin Abdulloh Al-G'anim va Birlashgan Arab Amirliklari Federal milliy kengashi qo'mitasi raisi Ali Rashid Al-Nuaymiy ishtirok etdi.

Arab dunyosi davlatlari bilan ko'p qirrali munosabatlarni, shu jumladan, parlamentlararo aloqalar orqali yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida delegatsiyalar rahbarlari O'zbekiston yetakchisiga o'z mamlakatlari yetakchilarining samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdilar.

Keyingi yillarda O'zbekiston va arab mamlakatlarining keng qamrovli sherikligi jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Oliy darajadagi tarixiy tashriflar amalga oshirildi, o'zaro muloqot va almashinuvlar faol davom ettirilmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari va Qatar Davlati bilan munosabatlari strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi, Saudiya Arabistoni va Misr bilan keng qamrovli hamkorlik yo'lga qo'yildi.

Bahrayn Podshohligi va O'mon Sultonligi bilan har tomonlama hamkorlik izchil rivojlanmoqda.

Ushbu mamlakatlar bilan investitsiya loyihalari portfeli 50 milliard dollardan oshdi. "Yashil" energetika, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, IT, transport va logistika, infratuzilma va turizm sohasidagi loyihalar amalga oshirilmoqda. 500 ga yaqin qo'shma korxonalar tashkil etildi, to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar soni haftasiga 150 tadan oshdi.

Mintaqaviy kun tartibidagi, shu jumladan, Yaqin Sharqdagi vaziyatni tartibga solishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasi, eng avvalo, joriy yil may oyida Samarqand shahrida "Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" muloqotining ikkinchi sammitini o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh kotibining bolalarga nisbatan zo'rovonlik masalalari bo'yicha maxsus vakili Najat Maalani qabul qildi.

Yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning samimiy salomini yetkazdi.

BMT institutlari, xususan, Maxsus vakil ofisi bilan bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'p qirrali sheriklikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Maxsus vakil O'zbekiston yetakchisining bolalarni zo'rovonlikning barcha shakllaridan himoya qilish, xotin-qizlar va bolalarni mojaroli hududlardan qaytarish, bolalar mehmatiga barham berish borasidagi samarali islohotlarini yuqori baholadi.

Bola huquqlariga oid xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik va milliy institutlar faoliyatini takomillashtirish

VYETNAM BILAN AMALIY SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Hukumatlararo va idoralaro muloqotlarga tizimli tus berish zarurligi qayd etildi.

Joriy yilda Xanoy shahrida Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va biznes forumini samarali o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Yangi loyihalarni ilgari surish uchun energetika, geologiya, neft-kimyo, elektrotexnika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda sanoat kooperatsiyasi bo'yicha kompleks dastur tayyorlashga kelishib olindi.

Madaniyat va turizm sohasidagi almashinuvlarni, shu jumladan, vizasiz tartibni joriy qilish orqali rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Q o ' s h m a tashabbuslarning amaliy ijrosini ta'minlash maqsadida parlamentlararo muloqotni faollashtirishga ahldashib olindi.

O'ZA.

O'ZA.

KO'P QIRRALI VA UZOQ MUDDATLI MUNOSABATLAR BARDAVOM BO'LADI

1 Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Prezidentning qator vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyatga o'tkazildi. Milliy parlamentimizda xotin-qizlarning ulushi bugungi kunda 38 foizga yetdi. 2021-yilda Oliy Majlis palatalari qoshida ilk bor Yoshlar parlamenti faoliyati yo'lga qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston tashabbusi bilan bu galgi assambleya "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzuida o'tkazilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi o'ttiz yilda jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 4,5 barobar oshgan. Lekin insoniyatning kambag'al qatlamlari daromadlari deyarli o'zgarmagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 2030-yilga

borib dunyo aholisining 575 million nafari qashshoqlikda umr kechiradi. 84 million bola esa ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Ushbu yo'nalishda davlatlarning vakillik organlari o'rtasida ko'p qirrali hamkorlikni yo'lga qo'yish va yanada kengaytirish umumiy taraqqiyotga munosib hissa qo'shishi qayd etildi.

O'zbekiston vakillari Osiyo Parlament Assambleyasi, Markaziy Osiyo parlamentlari forumi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament Assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasi va boshqa platformalarda faol qatnashmoqda.

Davlatimiz rahbari parlamentlararo hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi. Xususan, jahonning turli mintaqalaridagi nizolar global va mintaqaviy tinchlik hamda

xavfsizlikka jiddiy tahdid solayotgani ta'kidlandi. O'zbekiston har qanday ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat diplomatiya va tinch muzokaralar yo'li bilan hal qilishning qat'iy tarafdori ekanini qayd etildi.

Shuningdek, Prezidentimiz iqlim o'zgarishlari doimo diqqat markazida bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Parij bitimi doirasida va uqlerod neytralitligiga erishish borasida olingan majburiyatlar to'liq bajarilishi muhimligi urg'ulandi.

Xotin-qizlar huquqlarini qat'iy qaror toptirish ijtimoiy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Dunyo miqyosida ayol deputatlarining ulushi 1995-yildagi 11,3 foizdan joriy yilga kelib 27,2 foizga ko'tarilgan.

Keyingi yillarda yurtimizda BMT institutlari va Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda Osiyo xotin-qizlar forumi va Jahon

parlamentlari ayol rahbarlari sammiti samarali o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari o'z so'zida yoshlarning parlament faoliyati bilan bir qatorda, jamiyat hayotining barcha jabhasida to'laonli ishtirok etishi uchun ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish o'ta dolzarb masala ekanligini, shu bois milliy parlamentlar hamda Ittifoq faoliyatiga yoshlarni faol jalb qilish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz anjumani ishtirokchilarini shu yil sentyabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan kambag'allikni qisqartirishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyasi ishida faol qatnashish uchun taklif qildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari so'zining yakunida uyubey assambleya ishiga hamda ishtirokchilarga katta yutuq va muvaffaqiyatlar tiladi.

"Xalq so'zi".

Munosabat

O'zbekiston demokratiya tamoyillariga sodiq mamlakat

Tuliya EKSON, Parlamentlararo Ittifoq raisi.

– Avvalo, Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasiga mezbonlik qilayotgan O'zbekistonga o'zimizning mehrimni bildirmoqchiman. Bunday yig'ilihlarni tashkil etish oson emasligini yaxshi bilaman. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentidan bizni o'z mamlakatida qabul qilgani uchun minnatdormiz. Shu bilan birga, Senat Raisiga barcha tashkiliy masalalarni puxta amalga oshirgani uchun ham rahmat aytoqchiman.

Biz bu yerda iliq kutib olindik va oldinda yana ko'plab delegatlar kelishi kutilmoqda. Bizning tashrifimiz, albatta, O'zbekistonga bo'lgan yuksak hurmatimiz va bu yerda olib borilayotgan jarayonlarga katta e'tibor qaratayotganimizni ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekiston PI tamoyillarini – diplomatiya, demokratiya va boshqa sohalarida faol qo'llab-quvvatlayotgan davlatlardan biri ekaniga ishonamiz.

Assambleya davomida biz adolat va ijtimoiy taraqqiyot mavzularini jamlab, ular qanday uyg'unlashishi mumkinligini muhokama qilmoqchimiz. Sababi, ba'zida ijtimoiy adolatsizliklar bo'ladi va ayrim davlatlar bu adolatsizliklarni taraqqiyot nomidan oqlashga urinadi. Biz esa bu ikki tushuncha birgalikda rivojlanishi kerak, deb hisoblaymiz.

Joriy yil davomida biz Pekin Harakat platformasining 30 yilligini ham



nishonlaymiz, bu ayollar huquqlari haqida va taraqqiyotning ajralmas qismidir. Shu o'rinda O'zbekiston Prezidentining parlamentda ayollar sonini ko'paytirish yo'lidagi say-harakatlarini ta'kidlab o'tmoqchiman. Umumiy hisobda O'zbekiston parlamentida ayollar soni 37 foizdan oshadi, bu hozirda jahondagi o'rtacha ko'rsatkich – 26 foiz atrofida. Bu esa O'zbekistonning ushbu yo'nalishda katta yutuqlarga erishganini bildiradi. Ishonchim komilki, jamiyatning boshqa qatlamlari ham shunday imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Yana bir bor ta'kidlamoqchiman, bunday assambleyaga mezbonlik qilish mamlakatning PI qadriyatlariga sodiqligi va faol ishtirokini anglatadi. Aks holda hech kim bunday yig'inglarga qatnashmagan bo'lardi. Shu bois mamlakat Prezidentiga parlamentlararo diplomatiyani qo'llab-quvvatlayotgani uchun yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Ayni paytda biz iyul oyida Jenevada bo'lib o'tadigan Butunjahon Spikerlar konferensiyasini tashkil qilmoqdamiz va u yerda Senat Raisini ham ko'rishni istaymiz.

"Toshkent deklaratsiyasi"ni bir ovozdan qabul qilamiz



Martin CHUNGONG, Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi, "Do'stlik" ordeni sohibi:

– Yubiley assambleyasi, ya'ni Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasi ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasida – O'zbekistonda o'tkazilmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliy Majlis va albatta, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva xonimga chuqur minnatdorligimni bildirmoqchiman.

Mazkur anjuman gender tenglik borasida muhim yilga to'g'ri kelmoqda va Norboeva xonim bu borada yetakchilik qilib, gender tenglikni targ'ib etishda faol qatnashayotganidan mamnunman.

O'z navbatida, imkoniyatdan foydalanib O'zbekiston rasmiylarini yoshlarning siyosiy hayotidagi ishtirokini oshirish borasida erishgan yutuqlari bilan ham tabriklamoqchiman. Men bu yerga ilk kelganimda yoshlarning ishtiroki juda past edi, ammo hozirda bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan. Bunda O'zbekiston Prezidentining siyosiy jarayonlarda inkiyuvlikni ta'minlashga qaratilgan choralari e'tiborga loyiqdir.

Shuni ta'kidlash joizki, bir hafta davomida Toshkent parlament diplomatiyasining poytaxtiga aylandi. Bu yig'ilish global hamjamiyat duch kelayotgan muammolar, ziddiyatlar va nizolarni muloqot orqali hal qilish mumkinligini ko'rsatuvchi namunaga aylandi. Dunyo mukarrab muammolar, urush va ziddiyatlar girdobida qolayotgan bir paytda, ushbu assambleyaning O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakat rahbariyatining ko'p tomonlama hamkorlik va parlament diplomatiyasini rivojlantirishga bo'lgan sodiqligini ko'rsatadi.

Ishonamizki, biz "Toshkent deklaratsiyasi" deb nomlanuvchi asosiy bayonotni qabul qilamiz. Ushbu deklaratsiya Parlamentlararo Ittifoq uchun "Yo'li xaritasi" bo'lib xizmat qiladi va ijtimoiy taraqqiyot hamda ijtimoiy adolatlarni targ'ib qilishda bajariladigan ishlar uchun asos bo'ladi.

Shaxsan men ushbu assambleyaga katta umid bog'laganman va ishonchim komilki, biz O'zbekiston rasmiylarining mazkur muhim tadbiri o'tkazish taklifini qabul qilib to'g'ri qaror chiqardik.

IJTIMOIY ADOLAT MEZONI

5-aprel kuni Toshkent shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi o'z ishini boshladi.

Uning tantanali ochilish marosimi "Tashkent City" xalqaro biznes markazining Kongress davlatida bo'lib o'tdi. Unda assambleyada ishtirok etayotgan 190 ga yaqin davlatlardan kelgan 2 mingga yaqin delegatlar, xalqaro tashkilotlar vakillari, ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Tadbir kundaligi

Tadbir avvalida O'zbekiston Davlat madhiyasi hamda Parlamentlararo Ittifoq madhiyasi yangradi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi T. Norboeva, Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov, Parlamentlararo Ittifoq raisi T. Ekson va Parlamentlararo Ittifoq Bosh kotibi M. Chungong so'zga chiqdi.

Anjumanda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi nafaqat o'zining tarixiyligi, balki uning mazmun-mohiyati jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga, mamlakatlar barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti bo'lgan ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bilan ham ahamiyatli ekanini qayd etildi.

"Parijdan Toshkentga qadar: Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasini nishonlash" videoroligi taqdimoti o'tkazildi.

"Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzuida o'tkazilayotgan assambleya doirasida ijtimoiy taraqqiyotga erishishda, adolatlarni jamiyatni barpo etishda parlamentlar ishtirokini kengaytirish va faolligini oshirishga qaratilgan 90 ga yaqin turli tadbirlar va debatlar uyushtirildi.

Bugun jahon siyosiy maydonida o'zining mustahkam o'рни, obro'si va o'z so'ziga ega bo'lgan Parlamentlararo Ittifoq parlament diplomatiyasini rivojlantirish, demokratik institutlarni mustahkamlash, inson huquqlari himoyasi hamda Barqaror rivojlanish maqsadlarini ro'yobga chiqarish kabi muhim yo'nalishlarda faol ish olib bormoqda, – dedi Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva. – Tashkilot

milliy qonunchilik organlarining ilg'or tajriba va amaliyotlarini o'zaro integratsiya qilish orqali zamonaviy tahdidlarni bartaraf qilish bo'yicha parlamentlar uchun umumiy strategiyalarni ishlab chiqishda ko'maklashib kelmoqda. Ayniqsa, geosiyosiy vaziyat tobora taranglashib borayotgan bir davrda Parlamentlararo Ittifoq dunyoda tinchlik va xavfsizlikni saqlash, nizolarni hal etish, xalqaro huquq va tinchlikparvar siyosatni rivojlantirish borasida parlamentlar rolini kuchaytirishga harakat qilmoqda. Mojarolar hududida inson huquqlari himoyasi, zo'rovonliklarning oldini olish va jabrlanganlarga gumanitar yordamning ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhasida islohotlar izchillik bilan davom etmoqda, taraqqiyotning hal qiluvchi bosqichiga qadam qo'yildi. Milliy parlamentning ushbu jarayonlarda muhim ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy vazifalarni hal etishdagi roli, vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. So'nggi yillarda O'zbekiston parlamentini xalqaro parlament mexanizmlariga faol ravishda integratsiyalashib bormoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov ham o'z so'zida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan keyingi yillarda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish, xususan, inson huquq va manfaatlariga xizmat qiluvchi parlamentni takomillashtirish, qonunchilik sohasida milliy va xorijiy tajribalarni oshirib borish, parlament diplomatiyasini rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilayotganini alohida qayd etdi.

Ta'kidlanganidek, ijtimoiy siyosatni belgilashda va ijtimoiy adolat mezonlarini ta'minlashda parlamentning samarali faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bugun dunyoda parlamentlarga nafaqat qonun ishlab chiquvchi, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishni, kambag'allikni qisqartirishni, teng imkoniyatlar yaratishni, inson qadriini ulug'lashni maqsad qilib olgan tashabbuskor siyosiy subyekt sifatida qarabamiz.

Tadbirda so'zga chiqqanlar assambleyaning bosh mavzusi va uni ro'yobga chiqarish uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan bajarilayotgan ishlar hamda kelgusidagi rejalarga e'tibor qaratdi.

Tantanali tadbirdan keyin assambleya ishtirokchilari uchun Oliy Majlis nomidan rasmiy qabul marosimi o'tkazildi.

Assambleya doirasida muhim uchrashuvlar, samarali muloqotlar tashkil etildi. Kun davomida Ayol parlamentariylar byurosi majlisi, Parlament ayol a'zolari forumining 39-sessiyasi bo'lib o'tdi.

Ushbu sessiyada dunyoning turli burchaklaridan kelgan 200 dan ortiq parlament a'zolari, ayol yetakchilar va ekspertlar ishtirok etdi. Ular gender tenglik, ayollarning siyosiy yetakchiligi va inson huquqlari bilan bog'liq eng muhim masalalarni muhokama qildi.

Ta'kidlanganidek, forum parlament ayol a'zolari uchun global miqyosdagi muhim tadbir bo'lib, gender tenglikni ilgari surish, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ayollarning ishtirokini kengaytirish va barqaror rivojlanishga hissa qo'shish maqsadida tashkil etilgan.

Xalqaro tadbirning ikkinchi ish kunida assambleyaga boshqaruv qo'mitasi, boshqaruv kengashi, sog'lunlik saqlash bo'yicha maslahat guruhi majlislari o'tkazildi. Tinchlik va xalqaro xavfsizlik masalalari bo'yicha doimiy qo'sma, Barqaror rivojlanish bo'yicha doimiy qo'mitalarda rezolyutsiya loyihasi muhokama qilindi. Yosh parlamentariylar forumi

kengashi, Parlamentlar bosh kotiblari assotsiatsiyasi yig'ilishi tashkil etildi.

Assambleya doirasida bo'lib o'tgan boshqaruv kengashi majlisida 150-yubiley assambleya Prezidenti lavozimiga Oliy Majlis Senati Raisi nomzodi ilgari surildi hamda kengash a'zolari bir ovozdan Tanzila Norboevani assambleya Prezidenti etib sayladi.

Assambleyaning "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzuidagi birinchi yalpi majlisi bo'lib o'tdi. Uni Parlamentlararo Ittifoq raisi Tuliya Ekson ochib berdi va parlamentlar jahon miqyosidagi ijtimoiy muvozanatni tiklash, barqarorlik va adolatlarni ta'minlashda hal qiluvchi siyosiy institut sifatida faol ishtirok etishi zarurligini alohida ta'kidladi.

Shuningdek, 6-aprel kuni boshqa bir qator tadbirlar ham o'tkazildi. Xususan, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari parlamentlari devonlari rahbarlari uchrashuvi tashkil etildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devoni rahbari Quddus Nurullayev, Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Senati apparati rahbari, Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi apparati rahbari, Tojikiston Respublikasi Majlisi Oli devoni vakillari hamda xalqaro parlament tashkilotlari mutasaddilari qatnashdi.

Shu kuni yosh parlament a'zolari forumi ham bo'lib o'tdi. Unda xalqaro hamkorlik va barqaror rivojlanish masalalari ko'rib chiqildi.

Ushbu muhim anjuman yosh siyosatchilarning global miqyosdagi faolligini oshirish, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish va barqaror taraqqiyotga tahdid soluvchi omillarga barham berish masalalarini muhokama qilishga bag'ishlandi.

Tadbir davomida yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, ularning ovozi xalqaro maydonda yanada kuchaytirish va yosh yetakchilarning rolini mustahkamlashga qaratilgan yangi tashabbuslar ilgari surildi.

Xalqaro anjumanning uchinchi

kunida gender tenglik masalalariga bag'ishlangan maxsus segment ham bo'lib o'tdi.

Unda xalqaro tashkilotlar rahbarlari, jahonning turli mamlakatlari parlamentlari vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda Parlamentlararo Ittifoq Prezidenti Tuliya Ekson xonim raislik qildi.

U o'z nutqida 1985-yilda dunyoning turli burchaklaridagi parlamentlardan kelgan 22 nafar ayol a'zo tomonidan asos solingan ushbu harakat jahondagi birinchi parlament ayol a'zolari forumiga aylanganini qayd etdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva o'z so'zida mintaqaviy hamda global miqyosda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy sohalarida ortib borayotgan rolini yanada mustahkamlashda Parlamentlararo Ittifoqning muhim ahamiyatiga urg'u berdi.

Parlamentlararo Ittifoqning Bosh kotibi Martin Chungong esa gender tenglik faqat ayollarga oid masala emasligiga, u demokratiya, inson huquqlari va barqaror rivojlanish masalasi ekanligiga e'tibor qaratdi.

– Bu esa barchamizdan, ayniqsa, rahbarlik lavozimlarini egallab turgan erkaklardan aniq harakat va qadamlarni talab qiladi, – dedi M. Chungong.

Tadbir davomida "Gender tenglikka erishamiz: harakatlar ketidan, harakatlar!" shiori ostida gender tenglik bo'yicha yangi kompaniya e'lon qilindi.

Ushbu boshlangan yangi kompaniyani birinчилardan bo'lib O'zbekiston parlamenti qo'llab-quvvatlashi va unda belgilangan rejalarni amalga oshirish yo'lida katta mas'uliyat, qat'iyat bilan faoliyat olib borishi ta'kidlab o'tildi.

Bundan tashqari, Parlamentlararo Ittifoqi 150-assambleyasi doirasida "Yangi O'zbekiston davri: islohotlar va istiqbol" mavzuida mediatadbirlar ham bo'lib o'tdi. Parlamentlararo Ittifoq 150-assambleyasi tadbirlari 8-aprel kuni yana o'z faoliyatini davom ettirdi.

"Xalq so'zi".

Uchrashuv

O'ZARO HURMAT, OCHIQLIK VA ISHONCH – USTUVOR MAQSAD

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley sessiyasi doirasida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov bir qator davlatlar parlamentlari delegatsiyalari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Jumladan, Turkiya Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda keyingi yillarda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev hamda Reyler Tayyip Erdogan'ning siyosiy irodasi va sa'y-harakatlari natijasida keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlari o'zaro ishonch va do'stlik rishtalari asosida jadal rivojlanib, ikki tomonlama munosabatlarda yangicha impuls kuzatilyotgani qayd etildi.

Uchrashuvda O'zbekiston – Turkiya o'rtasidagi munosabatlar, jumladan, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar rivojlanib borishi ortidan o'zbek – turk parlamentlararo munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgani ta'kidlandi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Pokiston Islom Respublikasi Senati Raisi Yusuf Rizo G'iloniy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Pokiston Islom Respublikasi Senati Raisi iliq va do'stona munosabat uchun minnatdorlik bildirib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonda barcha sohada amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni yuqori baholadi. Shuningdek, ikki mamlakat o'rtasidagi turli sohada aloqalarni, xususan, parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratdi.

Tomonlar O'zbekiston va Pokiston parlamentlari o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib borayotgani, o'liy va yuqori darajalarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, ularning huquqiy asosini yaratishda parlamentlar muhim o'rin tutayotganini qayd etdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Tailand Vakillar palatasi Spikeri, Milliy assambleyasi prezidenti Van Muhammad Nur Matxa boshchiligidagi delegatsiya a'zolari bilan uchrashdi.

Unda O'zbekiston va Tailand o'rtasidagi munosabatlar, shu jumladan, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

O'z navbatida, Van Muhammad Nur Matxa O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarni e'tirof etib, Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi Markaziy Osiyo tarixida ilk bor Toshkent shahrida o'tkazilayotgani katta voqea ekanini, bu nafaqat mamlakat va mintaq, balki butun dunyo parlamentlari hamjamiyati uchun muhim ahamiyat kasb etishini aytdi.

"Xalq so'zi".

IKKI TOMONLAMA KELISHUVLAR QONUN IJODKORLIGINI MUSTAHKAMLAYDI

1 Aprel oyining o'tayotgan birinchi o'n kunligi mamlakatimiz hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy voqealarga boy bo'ldi. 3 – 5-aprel kunlari Samarqand shahrida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti hamda Samarqand xalqaro iqlim forumi bo'lib o'tdi. 5-apreldan boshlab mamlakatimiz poytaxti yana bir katta xalqaro tadbirga mezbonlik qila boshladi. Dunyoning 180 ga yaqin mamlakatlardan kelgan 2 mingga yaqin parlament spikerlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, yetakchi siyosatchilar bir yerga jam bo'ldi.

Tadbir doirasida Oliy Majlis Senati turlari mamlakat delegatsiyalari bilan qizg'in uchrashuvlar bo'lib o'tmoqda.

Xususan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva xorijlik parlament vakillari va delegatsiyalar rahbarlari bilan qator uchrashuvlar o'tkazdi.

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi doirasida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva 6-aprel kuni Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi, MDH PA Kengashi Raisi V. Matvienko bilan uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish va parlamentlararo aloqalarni kengaytirish masalalarini muhokama qildi.

Shu kunning o'zida mamlakatimiz parlamenti yuqori palatasi Raisi T. Norboeva Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush bilan uchrashuvda Oliy Majlis Senati hamda Turkiya parlamenti o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish istiqbollarga oid masalalarni muhokama etdi.

Shuningdek, tomonlar parlamentlararo hamkorlikni faollashtirish, turli tashriflar va anjumanlar o'tkazish orqali ikki mamlakat parlamentlari yuqori palatalari sherikligini rivojlantirishga kelishib oldi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva bilan O'mon Sultonligi Sho'ro Kengashi Raisi Xolid bin Hlilol al-Ma'vali o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida ikki mamlakat parlamentlararo muloqotini o'zaro tashriflar orqali faollashtirish, qonun chiqaruvchi organlarning tegishli qo'mitalari o'rtasida tajriba almashish va yaqin aloqalarni o'rnatish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, tomonlar parlamentlar do'stlik guruhlari, qo'mitalar hamda devonlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni yo'lga qo'yish vositasida samarali loyihalarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro fikr almashdi.

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboeva Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi yordamchisi, BMT Taraqqiyot

dasturining Yevropa va MDH bo'yicha mintaqaviy direktori Ivana Jivkovich bilan hamkorlikning keyingi istiqbollari muhokama qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasining BMT va uning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari, xususan, BMT TD bilan o'zaro hamkorligining dolzarb masalalari, sheriklikni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan konstruktiv fikr almashildi.

BMT Taraqqiyot dasturi bilan qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Oliy Majlis Senati Rasi Tanzila Norboevaning yana bir qator mamlakatlari parlamentlari rahbarlari bilan ikki tomonlama uchrashuvlarida xalqaro hamkorlikni kengaytirish va parlamentlararo muloqotini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova bilan muloqot chog'ida O'zbekiston va Belarus o'rtasidagi parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va innovatsion sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Turkmaniston Majlisi Raisi Dunyog'zal Gulmanova bilan uchrashuv chog'ida ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi aloqalarni tizimli asosda rivojlantirish, tajriba almashish va parlamentlararo hamkorlikni institutsional darajaga ko'tarish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Hindiston Respublikasi parlamentining quyi palatasi – Lok Sabha Spikeri Om Birla bilan uchrashuv ham qizg'in kechdi.

O'zbekiston tomonidan Lok Sabhada "O'zbekiston – Hindiston" parlamentlararo do'stlik guruhi tashkil etish taklif qilindi. Shuningdek, parlament sohasida kadrlar malakasini oshirish bo'yicha Hindiston parlamenti huzuridagi institut bilan hamkorlikka qiziqish bildirildi.

Shubhasiz, bo'lib o'tgan uchrashuvlar O'zbekistonning Belarus, Turkmaniston va Hindiston bilan ko'p qirrali hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi.



Shavkat MIRZIYOYEV: «SAMARQANDDAN TURIB QARALGANDA, DUNYO TARQOQ EMAS, BALKI YAXLIT VA BO'LINMAS BO'LIB KO'RINADI»

Nigoh



2025-yil 1-aprel... Butun dunyo nigohi Samarqandga qaratildi. Bu e'tibor Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi Samarqand sammiti oldidan "Euronews"ga bergan eksklyuziv intervyusidan boshlandi.

Samarqand – ulug'vor shahar. Uning tarixi qanday buyuk bo'lsa, buguni ham, kelajagi ham shunday buyukdir. Ba'zan Samarqandning darajasini tushirishga urinishlar ham kuzatilgan bo'lsa-da, tarix doim uning ulug'vorligini his etadigan, angliydigan shaxslarni maydonga chiqargan.

Samarqand tuprog'ining tabarrukligida shu yerda mangu qo'nim topgan buyuk zotlarning hissi beqiyos. Bu zaminda Qusam ibn Abbas (r.a.)ning muqaddas xoki, Buxoriyning buyukligi, Mir Sayyidning barakasi, Amir Temurning salobati, Xoja Ahror Valiyning karomati, Ulug'bekning salohiyati, Navoiyning qalbi, Boburning bunyodkorligi mujassamlashgan.

Samarqandning har qarich yeri, har bir g'isht bi ziga tarixdan so'zlaydi. Bu shaharning shon-shuhrati salkam uch ming yil davomida o'tda yonmadi, suvda cho'kmadi, tarix sahifalaridan o'chib ketmadi. Aksincha, bunga uringanlarning nomlari allaqachon unutilishga mahkum bo'lgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan Samarqand bugun nafaqat Osiyo, balki butun dunyoda eng ulug'vor shaharlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

2025-yil 2-aprel... Bu sana Samarqandning tarixiga oltin harflar bilan bitilajak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi Saida Mirziyoyeva o'zining "Facebook"dagi sahifasida shunday yozadi:

"YUNESKOning Parijdagi bosh qarorgohida O'zbekiston Respublikasi hukumati va YUNESKO o'rtasidagi kelishuv imzolashiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Samarqand endi rasman Bosh konferensiyaning 43-sessiyasi o'tkaziladigan joy sifatida belgilandi.

Bu biz uchun katta sharaf va mas'uliyatdir, negaki,

so'nggi 40 yil davomida ushbu konferensiya Parijdan boshqa yerda o'tkazilmagan.

Bu ijodiy industriyaning mashaqqatli mehnati, xalq diplomatiyasi va eng yuqori darajadagi kelishuvlar samarasidir. Bu – jahon hamjamiyatining mamlakatimiz ochiqqligi, o'ziga xos analari va madaniy merosi, boy tarixi, musiqasi, adabiyotiga katta qiziqish bilan qarayotgan dalolat.

Biz madaniyat va san'at vositasida mamlakatimizni xalqaro maydonda targ'ib etmoqdamiz, dunyo ahliga yanada yaqinlashtirmoqdamiz. Bu aloqalar bevosita iqtisodiy natijalarga ulanib, qo'shma loyihalar va umumiy g'oyalarga aylanmoqda.

Xush kelibsan, YUNESKO! Samarqandda uchrashguncha!.."

Samarqandni dunyo miqyosida ulug'lagan xushxabarni o'qir ekanman, beixtiyor ko'zlarimga yosh qalqdi. Zero, bu dunyoda O'zbekiston asri boshlangan dalolat beradi. Bu Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida jahonda O'zbekistonning ijobiy imji allaqachon shakllanganini, yaratilganini ko'rsatadi. Salkam yarim asr davomida kimlar orzu qilgan bunday yuksak maqomni?!

Men Samarqandim uchun faxrlandim. Mazkur yuksak sharafni yurtimizga olib kelganlar mehnatiga, mahoratiga, matonatiga tasannolar aytdim. Buning uchun, eng avvalo, Vatanni sevish kerak, yurtdoshlarni yaxshi ko'rish kerak.

2025-yil 2-aprel... Prezident Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida ishtirok etish uchun Samarqandga keldi.

Davlatimiz rahbari sammitning eng martabali mehmoni Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta bilan norasmiy uchrashuv o'tkazdi.

Butun dunyoda 1-aprel kuni boshlangan "Samarqand ruhi" aziz mehmonlarni o'z og'ushiga olgan edi. Samarqandning beqiyos me'moriy yodgorliklari, buyuk o'tmishi, rohatbaxsh havosi, betakror tabiati, to'li taomlari, afsonaviy noni... Eng muhimi, bag'rikengligi asrlar davomida xorijlik

hamkorlarimizni hayratlantirib kelgan. Ohanraboday o'ziga tortgan.

2025-yil 3-aprel... Prezident Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti dasturi doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso bilan uchrashdi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O'zbekiston o'rtasida o'rnatilgan munosabatlar mazkur uchrashuvdan so'ng yangi bosqichga ko'tarilishi muvaffaq. Chunki dunyo miqyosidagi ko'pgina moliyaviy tuzilmalarning mamlakatimizga bo'lgan qiziqishi, intilishi tobora ortayotganiga barchamiz guvohmiz.

Samarqand sammitining kun tartibi juda tig'iz edi. Lekin davlatimiz rahbarining qat'iy talabi bilan barchasiga ulgurildi. Bunday fursat har doim ham bo'lavermaydi axiri.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti doirasida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Bu oliy darajadagi mehmonlar huzurida O'zbekistonda Yevropa investitsiya bankining mintaqaviy ofisini ta'bis etish to'g'risida bitim imzolandi. Yevropa Ittifoqining yetakchi moliyaviy instituti hisoblanadigan mazkur bank mintaqaviy ofisining mamlakatimizda ish boshlashini hamkorlarimizning bizga bo'lgan yuksak ishonchi sifatida baholash mumkin. Yevropa standartlari, mezonlari va o'lchovlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, mazkur moliyaviy tuzilmaning ochilishi ijtimoiy-siyosiy hayotimizda katta voqeadir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida ishtirok etish uchun Samarqandga kelgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Shavkat Mirziyoyevning hamkasblari bilan bo'lib o'tgan o'zaro muloqotlarida Markaziy Osiyo uchun mushtarak maqsadlar ustuvorlik kasb etdi. So'zsiz bir-birini anglash, qo'llab-quvvatlash muhiti hukmronlik qildi.

2025-yil 4-aprel... Prezident Shavkat Mirziyoyev "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida nutq so'zlad:

"Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta Janobi Oliyilariga, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen Xonim Oliyalariga, mening barcha hamkasblarim – mintaqqa mamlakatlari yetakchilariga sammitni aynan shu zaminda, qadimiy Samarqand shahrida o'tkazish borasidagi tashabbusimni qo'llab-quvvatlaganlari uchun minnatdorlik bildiraman. Ko'p asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'llari chorrahasida joylashgan ushbu shonli shahar sivilizatsiyalar muloqoti hamda



Rustam XOLMURODOV, Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi.

Sharq va G'arb o'rtasidagi diplomatiya, savdo va madaniy almashuvlarning muhim markazi bo'lgan. Bu haqda ko'plab tarixiy dalillar mavjud. Masalan, Movarounnahr hukmdori Amir Temur bundan olti asrdan ziyod vaqt oldin aynan shu zaminda turib erkin va xavfsiz savdoni ta'minlash maqsadida Yevropa hukmdorlari bilan faol muloqotlarni yo'lga qo'ygan..."

Samarqand bugun o'zining shonli o'tmishi davomida ko'rmagan yuksaklikka ko'tarildi – Yevropa Ittifoqiga a'zo dunyoning eng rivojlangan 27 mamlakatida yashayotgan salkam yarim milliard va Markaziy Osiyo davlatlarida istiqomat qilayotgan yuz millionga yaqin aholi diqqat markazida bo'ldi.

Yevropa kengashi va Yevropa komissiyasi, shuningdek, yana 5 davlat Prezidentlari o'z soatlarini nufuzli sammit o'tayotgan kunlarda Samarqand vaqtiga to'g'irladi. Ha, o'sha tarixiy kunlarda butun dunyoda Samarqand nomi eng ko'p ishlatilgan so'z bo'ldi deyishimizga bugun to'la asosimiz bor.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Samarqand xalqaro iqlim forumi ishtirokchilariga yuzlabini aytgan mana bu so'zlari barchani to'qinlantirib yubordi:

"Ishonchim komil, bu zaminda, asrlar davomida yangi g'oya va bilimlar yaratilgan, ishonch va bunyodkor sheriklik markazlaridan biri bo'lgan qadimiy Samarqandda biz iqlim sohasidagi zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha birgalikda ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqa olamiz. O'zbekistonga xush kelibsiz! Samarqandga xush kelibsiz!"

Davlatimiz rahbari to'g'ri e'tirof etganidek, Samarqandda yangi g'oya va bilimlar tug'ilgan, yaratilgan. O'zaro ishonch va bunyodkorlik, sheriklik tamoyillariga sadoqat ko'rsatilgan. Bunday umuminsoniy g'oyalarga qadrlangan. Tarixda Samarqandda aylangan gapdan qaytilmagan. Bu muqaddas zaminning non-tuziga nisbatan hamma vaqt hurmat saqlangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand xalqaro iqlim forumi doirasida BMT Bosh kotibi o'rinbosari,

Yevropa iqtisodiy komissiyasi ijrochi kotibi Tatyana Molchan, BMT Bosh kotibi o'rinbosari, BMTning aholi punktlari bo'yicha dasturi (BMT-Xabitat) ijrochi direktori Anaklaudiya Rossbach, BMT Bosh kotibining o'rinbosari, Cho'linishga qarshi kurashish konvensiyasi ijrochi kotibi Ibrohim Tiav bilan uchrashuvlar o'tkazdi. Mazkur xalqaro institutlar bilan o'rnatilgan muloqotlar Vatanimiz rivoji va taraqqiyotida muhim o'rin tutishi, shubhasizdir.

Mening nazarimda, 2025-yil 1 – 5-aprel Prezident Shavkat Mirziyoyev uchun eng serunum, sermahsul, serfayz kunlar bo'lganligi bilan tarix sahifalariga muhrlanadi. Tasavvur eting – Samarqand qanday nufuzli, ulkan sammitga mezbonlik qildi. Sammitning ko'lami kengligiga alohida e'tibor qaratish muhim. Sammit ishtirokchilarining dunyo siyosatidagi o'rni, mavqei juda baland.

Samarqand sammiti Vatanimiz kelajagiga bo'lgan ishonchimimizni yanada mustahkamladi. O'zbekistonimizning xalqaro obro'sini belgilab berdi. Ishohotlarimiz jahon miqyosida e'tirof etilayotganini yana bir marta namoyish qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi Saida Mirziyoyeva o'zining "Facebook"dagi sahifasida bu haqda quyidagilarni yozdi:

"Bugun Samarqandda Markaziy Osiyo iqlim forumi o'z ishini boshladi. O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi sa'y-harakatlarini taqdim etish men uchun katta sharafdir... Hozirda Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan "Markaziy Osiyoning yashil rivojlanish" konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. U "yashil" texnologiyalardan tortib barqaror urbanizatsiyagacha bo'lgan barcha sohalarini to'la qamrab oladi... Biz muloqot va hamkorlikka ochiqmiz. Faqatgina birgalikda biz Yer yuzini asrab qolishimiz va farzandlarimiz, nabiralarning hamda bizdan keyingi barcha avlodlar uchun yaxshiroq kelajakni barpo etishimiz mumkin. Forum doirasida Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen bilan shaxsan tanishganimdan mamnunman. Ursula fon der Lyayen xonimning yetakchiligi va iqlim kun tartibini ilgari surishdagi izchilligi ihom bag'ishlaydi hamda samarali xalqaro hamkorlikka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi..."

Samarqand sammiti bizga, avvalo, tinchlikni ko'z qorachig'iday asrashimiz, har xil qutqlarga uchmasligimiz, Vatanimizning tobora yuksalayotgan obro'siga osonlikcha erishilmaganligini unutmashimiz kerakligini anglatadi.

Balki keyingi "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" sammitlari Ostonada, Dushanbeda, Ashxobodda, Bishkekda bo'lib o'tar. Biroq Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi, jasorati tufayli Samarqandda bo'lib o'tgan birinchi sammit o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydi.

Samarqandimizga dunyo diplomatiyasining markazi maqomi muborak bo'lsin!

BARQAROR TARAQQIYOTNING YANGI DAVRI

O'zbekiston bugungi kunda barcha mintaqalar bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga bor e'tiborini qaratayotgan mamlakat sifatida tarixga kirmoqda. Bu haqiqatni yaqindagina katta muvaffaqiyat bilan o'tkazilgan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti yana bir bor isbotladi. Markaziy Osiyoning yuragi – O'zbekistonda bo'lib o'tgan mazkur nufuzli anjumanda Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta ta'riflaganidek, mintaqqa sivilizatsiyasining durdonasi, navqiron Samarqand mezbonlik qilgan ilk sammit mamlakatimiz tashqi siyosatidagi kitob sahifalariga o'chmas harflar bilan yozildi.

Nuqtai nazar

Ona tilimizda "iftixor" degan, qalblarga g'urur bag'ishlovchi so'z bor. Bugungi kunda bu kalom chin ma'noda O'zbekiston uchun faqat ta'rif ifodasi emas, balki qalblardan yul olgan haqiqiy hissiyotga aylandi. Tan olish kerak, ilgari mamlakatimizning tashqi maydondagi ishtiroki cheklangan, ichki rivojlanishimiz sur'ati sekin edi. Xalqimizda milliy g'urur va ishonch tuyg'usi bugungidek yuksak emasdi. Endi esa manzara butunlay boshqacha.

O'zbekistonning tashqi siyosatidagi faolligi, nufuzli xalqaro forum va konferensiyalar tashkil etilishi, dunyodagi yetakchi mamlakatlardan teng huquqli muloqot – bularning barchasi yurtimizni jahon sahnasida tanitmoqda. Endi O'zbekiston nafaqat mintaqaviy, balki dunyo miqyosida ham o'z so'ziga ega davlatga aylandi.

Bu taraqqiyotning ildizi uchunchi Renessans g'oyasida mujassam. U inson salohiyatini yuksaltirish, ta'lim, fan, madaniyat va ma'naviyatni tiklash, tarixiy merosni qadrlash hamda zamonaviy dunyoda respublikamizning munosib o'rini belgilashga qaratilgan.

Uchunchi Renessans faqat o'tmishga qaytish emas, balki kelajakni qayta kashf etishdir. Hozirgi o'zgarishlar sharoitida yoshlar orasidagi faollik, yangicha tafakkur va eng muhimi, Vatanga bo'lgan muhabbat va iftixor hissi tobora ortyapti. Bu islohotlar nafaqat iqtisodiyotni, balki xalqning ruhiy olamini ham o'zgartirmoqda.

yangi, tarixiy bosqichni boshlab bergan platformaga aylandi.

Tarixda ilk bor YEI yetakchilari, jumladan, Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen va Markaziy Osiyoning barcha besh davlati rahbarlari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso hamda Yevropa investitsiya banki rahbariyati bir davrada, umumiy formatda yig'ilib, strategik sheriklikni shakllantirish masalasida muhokama olib bordi.

O'z navbatida, bunday tadbirlar har vaqt, har mintaqqa yoki har mamlakatda bo'lavermaydi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo mamlakatlari, butun bir qit'a taqdiriga daxldor masalalarni hal qilish yo'lidagi bir davrada jam bo'lishining o'zi ulkan va dadil qadamdir. Jumladan, yaqindagina muqaddas Hayit kunlari guvohi bo'lganimizdek, uch mamlakat – O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston rahbarlari sammitining adolatli qarori natijasida davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnomha imzolandi. Do'stlik telasi tantanali ravishda ochildi.

Bu tarixiy uchrashuv natijasida o'zbek, tojik va qirg'iz xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stligimizga abadiylik ramzi o'rnatildi. Eng quvonarli, chegaralar masalalarini ijobiy yechim topdi. Yaqinqacha Yevropa naryoqda tursin, qo'shni davlatlarga o'tish mumkin emas edi, qarindosh-do'stlar bilan bordi-keldi yo'q darajaga tushib qolgandi. Bir so'z bilan aytganda, o'rtadagi ko'rinnmas devorlar, chegaralarda o'rnatilgan minalar tinchlik bermasdi.



Abdusaid KO'CHIMOV, Oliy Majlis Senati a'zosi.

Muhim islohotlar, tashabbuslar, umuman, mintaqamiz rivoji zamirida davlatimiz rahbarining sa'y-harakatlari, tashqi siyosatdagi oqilona qarorlari benihoya muhim rol o'ynamoqda. Gap mukofot yoki rag'batda emas, balki e'tirofda, deb bilaman. Bizga o'zimizning emas, balki boshqa mamlakat, mintaqqa ekspert-olimlari bahosi, e'tirofi va e'tibori muhim. Zero, ishlarimizni belgilab beruvchi, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchilar aynan mutaxassislardir.

O'z navbatida, o'zarbayjonlik siyosatshunos va jurnalist Ilgar Velizade qo'shni bilan muloqotni yo'lga qo'yishni tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgiladi.

Aytmoqchimanki, so'nggi 7-8 yilda Markaziy Osiyo birdamlikka qarab qadam tashladi. Davlatlarimizning turli hududlarida tashkil etilayotgan oliy darajadagi uchrashuvlar ijobiy bir shaklda, o'g'a-inichilik tamoyiliga asoslangan holda ko'pgina mamlakatlarga o'rnak bo'ldi. Buning natijasida Markaziy Osiyo dunyoning yetakchi davlatlari itiladigan, bozoriga va fuqarolari salohiyatiga qiziqish bildiriladigan mintaqaga aylana oldi.

Birgina O'zbekistonni olaylik. Yurtimizning Yevropa Ittifoqi bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yakuniga ko'ra 6,4 milliard dollarga yetdi. Bu o'tgan yildagiga nisbatan 5,2 foiz o'sishni anglatadi. Mamlakatimizda Yevropa sarmoyasi ishtirokidagi mingdan ziyod korxonalar faoliyat yuritmoqda. Iqtisodiyotimizga ko'hna qit'a kiritgan investitsiya 30 milliard yevroga yaqinlashdi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilab qo'yilgan maqsadlar, jumladan, yalpi ichki mahsulot qiymatini 200 milliard dollarga yetkazish, tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va diversifikatsiya qilish kabi yo'nalishlar YEning ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang. Bu esa o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Tuzilmaning mintaqamiz bilan hamkorlik qilishga bo'lgan intilishi barchamizni quvontiradi, albatta. Shu ma'noda, davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida bildirgan fikrlar yodga tushadi: "Markaziy Osiyoning ochiqqligi va barcha sheriklar bilan o'zaro manfaatli hamkorlikka tayyor ekanini mintaqada xavfsizlik va farovonlikni ta'minlashning eng muhim shartiga aylandi."

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid ustuvor yo'nalishlar yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bayon qildi. Jumladan, "yashil" energetika, innovatsiya, transport, infratuzilma va agrar sohadagi yirik mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun Investitsiya platformasini ishga tushirish tashabbusi ilgari surildi.

Birgina "yashil" energetika masalasini tahlil qiladigan bo'lsak, bugungi kunda Yevropada energetika bilan bog'liq yetarlicha muammolar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Bizning mintaqada barcha turdagi metallar, hatto Mendeleev jadvaliga kiritilmagan elementlar ham borligi eng katta yutug'imiz va imkoniyatimizdir.

Sammit doirasida imzolangan Samarqand deklaratsiyasi ushbu munosabatlarni institutsional darajada mustahkamlab, barqaror rivojlanish, transport va logistika, savdo, "yashil" energetika hamda xavfsizlik sohalarida uzoq muddatli sheriklikni belgilab beradi.

Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta sammitdagi nutqi chog'ida so'nggi yillarda YEning 2019-yil qabul qilingan Markaziy Osiyo strategiyasi, 2023-yili tasdiqlangan "Yo'l xaritasi", shuningdek, Yevropa Ittifoqi Global darvozasi strategiyasi doirasida mintaqamiz bilan faol hamkorlik qilayotganini qayd etdi.

Hamkorligimiz salohiyati hali to'liq yuzaga chiqqani yo'q. Bu sheriklik – bizor manzilga emas, balki uzluksiz rivojlanishga yo'naltirilgan safar, – deydi kengash Prezidenti. – Bugungi sammit munosabatlari bizga yangi bosqichning boshlanishi. U yakkalikda qolmaydi. Men sizning takliflaringizni eshitishga, hamkorlikning qaysi sohalarini eng katta foyda keltirishini birgalikda aniqlashga tayyorman. Umumiy strategik sherikligimizni real va samarali qilib, aniq natijalarga ega tizimga aylantirishimiz shart.

Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayen ta'kidlaganidek, bugungi kunda Yevropa va Markaziy Osiyoni ko'p asrlik "Buyuk Ipak yo'li" merosi yana birlashtirmoqda va biz buni zamonaviy, uzoq muddatli hamkorlikka aylantirish niyatidamiz.

Darvoqe, bugungi dunyoda xavfsizlikka oid muammolar ham ortib bormoqda va bu tahdidlar transchegaraviy tusga ega. Hech bir mintaqqa bu xavfdan xoli emas. Shuning uchun ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro darajada hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur.

Xavfsizlik bugungi kunda nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi umumiy tahdidlar – terrorizm, ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik, narkotrafik va kibervavfaga qarshi birgalikda harakat qilish zaruratini yaxshi anglab yetgan. Shavkat Mirziyoyev mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash har doim Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun eng ustuvor vazifalardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolishini aytdi.

Shunday ekan, davlatimiz rahbari Ukraina atrofidagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha muzokaralar jarayoni boshlanganini olqishlaydi va to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Afg'onistonni tinch rivojlantirish masalalarida siyosiy maslahatlashuvni davom ettirishga tayyorligimiz alohida ta'kidlandi. Shu bilan birga, davlatimiz

rahbari jahon hamjamiyati ushbu mamlakat hududidan kelib chiqadigan barcha tahdidlarni yetarlicha baholay olmayotgani xususida ham so'z yuritdi.

Umuman, O'zbekiston tomoni qo'shni xalq – afg'on tomonini mintaqaviy iqtisodiy jarayonlari, jumladan, investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga ijtimoiy sohani qayta tiklash yo'li bilan faol jalb etish zarur, deb biladi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy qudratga ega mintaqqa sifatida jahonda o'z o'rniga ega. Birgalikda besh mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 500 milliard dollardan ortiq bo'lishi mumkin. Qozog'iston – uran qazib chiqarish bo'yicha dunyoda ilg'or. O'zbekiston – oltin va paxta ishlab chiqarishda yetakchi. Turkmaniston – gaz bo'yicha gigant. Qirg'iziston va Tojikiston – gidroenergetika liderlari. Agar bu resurslar yagona iqtisodiy tizimga birlashta, umumiy bozor, investitsiya, transport yo'laklarining ahamiyati beqiyos ortadi.

Samarqand sammiti – faqat diplomatik voqea emas, balki har bir fuqaro hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi barqaror taraqqiyotning yangi davrini boshlab beruvchi strategik tadbirdir. Bugun O'zbekiston dunyoga, dunyo mamlakatlarimizga ochildigan. Prezidentimizning qarori ijobiy tashabbuslari xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT tomonidan ham e'tirof qilinib, qo'llab-quvvatlanmoqda, amaliyotga joriy etilmoqda. Samarqand sammiti ham ayni tashabbuslarning biri. Anjumanda qabul qilingan hujjatlar yaqin yillarda Markaziy Osiyo xalqlari hayotida jiddiy ijobiy o'zgarishlarga turtki beradi, deb ishonamiz.

Bir siyosatchi, ijodkor sifatida Samarqand sammiti voqealari kundaligini kuzatib, davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari, mehmonlarning fikr-mulohazalarini tinglab, ko'nglimda bir ruhiy yuksalish sezaman. Bu hissiyotni sammitda ishtirok etgan hamyurtlarimiz ko'zlarida, nigohlarida ham ko'rdim, angladim. Biz, bugungi kunda O'zbekiston, Markaziy Osiyo hududida yashayotgan ellar buyuk tarixga, ulkan madaniyat va davlatchilik merosiga egamiz. Nasib etsa, tarixiy haqiqat tiklanadi. Qo'hna Turkiston xalqlari dunyo sahnasida o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi. Bu o'ylar esa ko'ngillarga cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ularini bag'ishlaydi.



Global muammolar yechimi

Imomnazar TURSUNOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:
– Parlamentlararo Ittifoq assambleyasining yurrtimizda o'tkazilayotganining o'ziga yarasha sabablari bor. Eng avvalo, keyingi sakkiz yilda O'zbekiston ochiq, konstruktiv va pragmatik tashqi siyosatni amalga oshirib, nafaqat qo'shni davlatlar, balki xalqaro hamjamiyat bilan ham yaqin muloqot o'rnatdi. Mamlakatimiz Oliy Majlisi so'nggi yillarda turli davlatlar parlamentlari bilan aloqalarni kuchaytirib, yangi qonunchilik tashabbuslari va demokratik institutlarni mustahkamlash yo'nalishida katta qadamlar qo'ymoqda. Qolaversa, xalqaro tadbirlarni har tomonlama yuqori saviyada o'tkazishda O'zbekiston yaxshi tajriba to'pladi. Shu bois Parlamentlararo Ittifoq o'zining nufuzli yig'ini aynan Toshkentda o'tkazishni maqsad qilgan desak, yangilashgan bo'larmiz. Bu – nafaqat yurtimizga bildirilgan ishonch, balki O'zbekistonning xalqaro maydonda tobora muhim o'rin egallayotganidan dalolatdir.



Aytib o'tish kerakki, bunday keng ko'lami tadbirni o'tkazishdan oldin Parlamentlararo Ittifoq vakillari kelib, barcha sharoitni o'rgandi. Eng muhimi, anjuman o'tadigan mamlakatda erkin va demokratik muhit uchun xavfsiz sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, tinchlik barqaror O'zbekiston har tomonlama munosib manzil sifatida tanlandi. Bu mamlakatimizda davlat rahbari boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlar, demokratik jarayonlarni rivojlantirishdagi sa'y-harakatlar yuksak baholanayotgani ham ko'rsatadi.

Assambleyaning yana bir muhim jihati shuki, ushbu yirik tadbir mamlakatimiz uchun bir nechta strategik imkoniyatlarni taqdim etadi. Anjuman doirasida ko'plab ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar, jumladan, nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy muloqotlar o'tkazilmoqda. Bu mamlakatimizning investitsiyaviy muhiti va iqtisodiy islohotlarini xalqaro arenada keng targ'ib qilish imkonini beradi.

Assambleyaning turkum yig'ilishlarida qator dolzarb masalalar, xususan, mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va kambag'allikning asl sabablari bilan kurashish choralarini muhokama markazida bo'ladi. Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish masalasi ham atroflicha muhokama etiladi. "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzusi parlamentlarga endi faqat qonun qabul qiluvchi emas, balki ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi, kambag'allikni qisqartirish, teng imkoniyatlar yaratish, inson qadriini ulug'lashda tashabbuskor siyosiy subyektlar sifatida qaralishi kerakligini ta'kidlaydi.

Tan olish kerakki, bugun dunyoda korrupsiya, sud tizimidagi muammolar va huquqbuzarliklarga nisbatan jazo tizimining zaifligi taraqqiyotga to'siq bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, anjumanda adolati sud tizimini shakllantirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganiladi. Nufuzli anjumanda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro mexanizmlar va ularning amaliy samarasi ham muhokama etiladi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz orqali parlamentimiz palatalarining birgalikdagi hamda alohida vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Parlamentlararo Ittifoqning asosiy vazifalaridan biri ham aynan parlament demokratiyasini rivojlantirish sanaladi. Shu bois ushbu tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining kengayishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohangdir. Qolaversa, assambleya doirasida O'zbekistonda saylov tizimi, qonunchilik faoliyati, fuqarolarning ishtiroki kabi mavzular muhokama qilinishi va xalqaro standartlarga mos ravishda yanada takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Bu tashkilot nafaqat parlamentlar o'rtasida muloqot va hamkorlik uchun samarali maydon, balki inson huquqlari, gender tenglik, iqlim o'zgarishi, yoshlar masalalari kabi global muammolarga parlamentlar orqali yechim topishga qaratilgan muhim siyosiy platforma hamdir.

Tajriba almashish uchun imkoniyat

Xushvaqt HAYITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:
– Davlatimiz rahbari Parlamentlararo Ittifoqning 150-assambleyasidagi nutqida bugungi kunda yangi O'zbekiston ortga qaytmas demokratik islohotlar va pragmatik tashqi siyosat yo'lidan dadil qadam bosib, dunyo hamjamiyati bilan ochiq va jadal muloqot olib borayotganini ta'kidladi. Ayniqsa, milliy parlamentimizda xotin-qizlarning ulushi bugungi kunda 38 foizga yetgani, mazkur ko'rsatkich Parlamentlararo Ittifoq tomonidan yuksak e'tirof etilib, Osiyo mintaqasida so'nggi o'ttiz yilda eng yuqori o'sish sifatida baholanganini aytdi.



Darhaqiqat, bugun dunyoning ko'plab davlatlari mamlakatimizdagi demokratik o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va keng e'tirof etadi. Bulardan biri inson qadriini ulug'lash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash

masalasi. Aytish joizki, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning qadr-qimmatini ulug'lash davlat siyosatida muhim qismga aylandi.

Hozirgi vaqtda ayol-qizlarimizning davlat boshqaruvida, siyosatda, ijtimoiy sohaning barcha yo'nalishida, qurilish va sanoatda, tadbirkorlikda, qo'yingki, barcha soha va tarmoqlarda erkaklar qatorida baravar faoliyat olib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, bugungi kunda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 35 foizga, tadbirkorlik sohasida 45

foizga, siyosiy partiyalar tarkibida esa 49 foizga yetdi. Vazir va vazirga tenglashtirilgan lavozimlarda xotin-qizlari ushbu 2018-yilda qariyb 3 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan davrda ikki yarim barobar oshib, 7,7 foizga yetgani e'tiborli. Vazirlik va idoralardagi xodimlarning 49 foizi xotin-qizlardir.

2024-yilgi saylovlar natijasida Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlarning 57 nafarini yoki 38 foizini ayollar tashkil etgani mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi. Senat a'zolarining qariyb 27 foizi yoki 16 nafari, mahalliy Kengashlarga saylangan deputatlarning 32,6 foizi xotin-qizlar bo'ldi. Natijada xalqaro reytingda parlamentdagi xotin-qizlar salmog'i bo'yicha O'zbekiston dunyodagi 193 ta davlat o'rtasida 49-o'rindan 34-o'ringa ko'tarildi.

Shuningdek, xotin-qizlarimiz tibbiyot sohasida 75 foiz, ta'limda 71

foiz, iqtisodiyot va sanoat yo'nalishida 47 foiz, qishloq xo'jaligi tarmog'ida 43 foizni tashkil etmoqda.

2020 – 2024-yillarda 8 ming 653 nafar ehtiyojmand xotin-qiz oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosida o'qish baxtiga erishdi. Har yili besh yillik mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotli bo'lmagan 500 nafar xotin-qizga qo'mita tomonidan tavsiyanomalar berish tizimi orqali ularning oliy ta'lim muassasalariga to'lov-shartnoma asosida o'qishga qabul qilinishi yo'lga o'yildi. 2022 – 2024-yillarda 1 ming 256 nafar xotin-qiz ushbu imtiyoz orqali oliy ta'limga o'qishga kirdi.

Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan xotin-qizlarning shartnoma to'lovlari qoplab berilayotgani ham e'tiborga molik. Oliygo, texnikum va kollejlarda kunduzgi ta'limda o'qiyotgan xotin-qizlarga bunday to'lov uchun 7 yilga

foizsiz kredit berilishi joriy etildi. Natijada 181,5 mingdan ziyod talaba xotin-qizlarga 7 yil muddatga foizsiz ta'lim krediti ajratildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday e'zgu ishlar kelgusida ham davom ettiriladi. Bu esa yurtimizda inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

Assambleya doirasida tashkil etilgan ayol parlamentariyalar forumi ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirishga yo'l ochadi. Zero, anjuman butun dunyodan yuqori martabali mehmonlar, shu jumladan, parlament spikerlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, yetakchi siyosatchilarni jamladi. Bu O'zbekistonning xalqaro siyosatdagi nufuzini yanada mustahkamlashga sharoit yaratadi. Shuningdek, assambleya doirasida ko'plab ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazilishi natijasida ishtirokchilar qonun ustuvorligini yanada mustahkamlash va boshqa yo'nalishlarda tajriba almashish uchun qulay imkoniyatga ega bo'ladi.

Osiyo mintaqasi va qit'alar o'rtasidagi ko'priklar

Muhammad Rizo MAJIDIY,
Osiyo Parlament Assambleyasi Bosh kotibi:



– Parlamentlararo Ittifoq 150-assambleyasi Markaziy Osiyo mintaqasida, aynan O'zbekistonda bo'lib o'tayotgani e'tiborga molik. Ishonchim komilki, bu yig'ilish O'zbekiston parlamentining nafaqat milliy va mintaqaviy, balki xalqaro miqyosdagi faoliyatida ham muhim asos bo'ladi.

Muhimi, bu – Osiyoda parlamentlararo diplomatiya orqali ko'p tomonlama hamkorlik yo'lidagi birinchi qadamdir. Biz uchrashuv davomida Osiyodagi turli parlamentlarga ikki va ko'p tomonlama munosabatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi masalalarni ham ko'tardik. Fursatdan foydalanib aytishim joiz,

men yana bir bor O'zbekistonga safar qilganimdan g'oyat mamnunman. Bir muddat avval Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo'lganman. Har bir tashrifimda bu yurtning nafaqat ijtimoiy, balki madaniy va iqtisodiy taraqqiyotiga guvoh bo'layman.

Umid qilamanki, Parlamentlararo Ittifoqning bu galgi O'zbekistondagi sessiyasi ushbu mamlakat va jamiyatning rivojlanishini, ijtimoiy taraqqiyotini butun dunyoga namoyon qiladi.

Ijtimoiy taraqqiyotga oid mavzular jamiyatlarimiz uchun nihoyatda muhim, chunki hali hal qilishimiz kerak bo'lgan turli masalalar mavjud. Bu borada Osiyo parlamentlari va boshqa qit'alaridagi parlamentlar o'rtasida tajriba almashuvi nihoyatda zarur.

Ishonchim komilki, Toshkentda o'tkazilgan ushbu uchrashuv natijalari xalqlarimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.



Tinchlik tashabbuslari e'tirofga sazovor

Nelli KASUMBA,
Zambiya Milliy assambleyasi Spikeri:



– Ushbu assambleyaning asosiy mavzusi – taraqqiyot va ijtimoiy adolatni rivojlantirish. Zotan, parlamentlarning vazifasi faqat qonunlarni qabul qilish va nazoratni amalga oshirishdangina iborat emas, balki parlament diplomatiyasi orqali global jarayonlarga ta'sir ko'rsatishdir. Parlament a'zolari xalq nomidan ish yuritgani uchun ularning ovozi kuchli. Shu bois ular bu mas'uliyatni ham his etishlari kerak.


Bu galgi anjuman ham dunyo miqyosida muhim bo'lgan muhokamalarga boy bo'lishiga iymonim komil. Umuman olganda, yurtimizda bo'lishdan g'oyat mamnunman. Chunki mamlakatimiz go'zal va maftunkor ekan.

Ayonki, Parlamentlararo Ittifoq assambleyasiga mezbonlik qilish uchun davlatlar o'z nomzodlarini ilgari surar ekan, avvalo, tanlanayotgan mamlakatda erkin va demokratik muhit uchun xavfsiz sharoitlar yaratilgan bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi. Shu ma'noda, O'zbekiston 150-yubiley assambleya uchun munosib nomzod sifatida qabul qilindi. Bu mamlakat rahbariyati olib borayotgan islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan munosib e'tirof etilayotganidan dalolatidir.

O'zbekiston Prezidenti xalqaro minbarlarda davlatlarni tinchlik va birdamlikka da'vat etadi. Qisqa muddatda Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatdi. Bu ham yurtimizning aynan Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi uchun munosib mezbonligini tasdiqlaydi.

Demokratik boshqaruv yo'lidagi dadil qadam

Ravshan FOZILOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:



– Davlatimiz rahbarining anjumanidagi nutqida dunyodagi mojarolarni hal qilish, iqlim o'zgarishi, ijtimoiy himoya va sun'iy intellektidan foydalanish masalalariga alohida to'xtalib o'tdi.

To'g'risi, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan fikrlar, tashabbus va takliflar mamlakatimizning xalqaro hamjamiyat o'rtasidagi obro'-e'tiborini yangi pog'onaga ko'tardi, barcha birdek zo'r qiziqish bilan tingladi.

Chuqur tahlil qilib, e'tibor bersak, ushbu tashabbuslar qamrov va miqyosi jihatidan juda keng. Ular faqat milliy yoki mintaqaviy emas, balki butun jahon hamjamiyati manfaatlarini o'zida aks ettirgani bilan alohida e'tiborga molik.

Davlat rahbari so'nggi o'ttiz yilda jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 4,5 barabarga ortgan bo'lsa-da, insoniyatning kambag'al qatlamlari daromadlari deyarli o'zgarmaganiga e'tibor qaratdi. Bu tendensiya saqlanib qolsa, 2030-yilga borib, dunyo aholisining 575 million nafari qashshoqlikda umr kechirishi, 84 million bola esa ta'lim olish imkoniyatidan mahrum bo'lishini qayd etdi. Yurtboshimizning ushbu fikrlari xalqaro jamoatchilik tomonidan zo'r e'tibor bilan qarshi olindi.

Hammamiz ko'rib-bilib turibmiz, so'nggi yillarda davlatimizning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, aholini kambag'allikdan chiqarish, daromadini oshirish, tadbirkorlarni faol qo'llab-quvvatlashga e'tibor nihoyatda kuchaydi. Umuman, kambag'allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylandi.

Natijada O'zbekiston iqtisodiyoti 2024-yilda 6,5 foizga o'sib, yalpi ichki mahsuloti qariyb 115 mlrd. dollarga yetdi. Bu, albatta, Yurtboshimizning juda katta siyosiy irodasidan dalolat, yangi O'zbekiston o'z yo'lidan to'g'ri va dadil odimlayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimiz o'z nutqida jahonda yuz berayotgan bugungi global o'zgarishlar Parlamentlararo Ittifoq va milliy parlamentlar oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'ymoqda, deya ta'kidladi va oltilta masalaga alohida to'xtalib o'tdi. Ushbu muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan tashabbuslar parlamentlar vakillari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi. Chunki ular nafaqat O'zbekiston manfaati, balki jahon hamjamiyatiga ijobiy va barqarorlashtiruvchi ruhda ta'sir etishi aniq.

Mazkur tashabbus jahonning turli mintaqalaridagi nizolarni hal etish, iqlim o'zgarishi, xotin-qizlar huquqlari, yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, har bir insonning ijtimoiy himoyasini ta'minlash va hozirgi kunda barcha jabhaga keng kirib kelayotgan sun'iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirish masalalarini ham qamrab olgan.

Nutqda, shuningdek, mamlakatimizda kuchli va mas'uliyatli parlamentni barpo etish, samarali parlament diplomatiyasini tatbiq qilish uchun keng sharoitlar yaratilgani ta'kidlab o'tildi. Bu boradagi tajribalar baham ko'rildi, deyshiy mumkin.

Chindan ham, keyingi yillarda parlamentimiz ancha o'zgardi. Jonli e'firlar, hayotiy savol-javoblar kuchaydi. Parlament nazoratini amalga oshirish, qonunchilik takliflarini ilgari surish tartibi, qabul qilish jarayoni takomillashdi.

Albatta, bularning barchasi O'zbekistonning demokratik boshqaruv yo'lidan dadil odimlayotganini anglatadi. Ushbu nufuzli tuzilma o'zining yuqori organi – assambleyani parlamentarizm va barqaror rivojlanishning ijobiy tajribasi mavjud bo'lgan mamlakatlarda o'tkazishi ham mamlakatimiz parlamenti yetarli salohiyatga egaligini ifoda etib turibdi.

“Xalq so'zi”.

Samarali muloqotlar uchun qulay platforma

Narimon UMAROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

– Dunyo hamjamiyatida raqobatbardosh mehnat resurslari ko'payib borayotgan va iqtisodiy jihatdan tezkor o'sayotgan mintaq – Markaziy Osiyo, desak, ayni haqiqat. Umumiy o'zgarishlar orasida mintaqa parlamentlarining o'zaro hamkorlikni ishonchli va yangi strategik darajaga ko'tarish bilan bog'liq yo'nalishida ham katta yutuqlar kuzatilmoqda. O'zbekiston mezbonlik qilayotgan tadbirning negizida ham mintaqamizda yaratilgan yangi muhit, yangi istiqbollarga erishishga qat'iy qadamlar qo'yilayotgan harakatlar mujassam, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bejiz emaski, ushbu assambleya Vatanimiz va xorijda o'ziga katta e'tibor jalb qilmoqda va chuqur qiziqish bilan kuzatib borilyapti.

Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnichilik, ishonch muhitining yaratilishi hamda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishida



Prezidentimizning keyingi yillardagi bir qator nufuzli xalqaro anjumanlarda ilgari surgan tashabbuslarining ahamiyati katta. Global innovatsiyalar, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va yangi ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi qonun ijodkorligi faoliyatiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro tadbir kun tartibida inson huquqi, gender tenglik, iqlim o'zgarishi, yoshlar va ayollar faolligi, tinchlik hamda xavfsizlik, BMT bilan hamkorlik va parlamentlararo sheriklik kabi dolzarb yo'nalishlar qamrab olingan.

Bu kabi sa'y-harakatlar tufayli O'zbekistonda

qonunchilik faoliyatining yangi bosqichda rivojlanishi mamlakatimizning jahon huquqiy hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirmoqda. Bu borada “Qonun ustuvorligi indeksi”, “Jahon adolat loyihasi” kabi nufuzli xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rni muntazam yaxshilanib bormoqda.

Anjumanda davlatimiz rahbari dunyo parlamentlariga murojaat bilan qatnashdi. Unda tahlikali vaziyatda dunyo parlamentlarining dolzarb masalalari bo'yicha bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, mintaqaviy tinchlik va xavfsizlik, iqlim o'zgarishi, jamiyatda xotin-qizlar va yoshlarning rolini yanada oshirish, insonlarga sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish va sun'iy intellekt sohasida hamkorlikni rivojlantirish kabi muhim takliflar bildirildi. Bu tashabbuslar ishtirokchilar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi.

Asosiy, bularning barchasi tarixiy assambleya yekunlari bo'yicha qabul qilinishi mo'ljallangan

yakdil pozitsiyani aks ettiruvchi dasturiy hujjat – Toshkent deklaratsiyasida o'z ifodasini topishiga ishonamiz.

Tadbirlar davomida mamlakatimiz parlamentariylari ham o'z ilg'or tajribalari bilan faol qatnashmoqda. Binobarin, O'zbekiston so'nggi yillarda ijtimoiy taraqqiyot va demokratik davlat qurilishi borasida ijobiy yutuqlarga erishdi. Jamiyatda ayollar, yoshlar rolini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, bolalar huquqi hamda iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha tajriba orttirildi va buning natijalari dunyo hamjamiyatiga taqdim etish imkoniyati keldi, deb bilamiz.

Umuman, anjuman ishtirokchilari global muammolarni hal etishda parlamentlar rolini kuchaytirish bo'yicha ilg'or tajriba almashish imkoniga ega bo'ladi. Toshkent anjuman samarali muloqot va muhim qarorlar ishlab chiqish uchun qulay platforma bo'lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun

OQILA, ISTE'DODLI VA JASUR

Ko'plab fazilatlarini o'zida jamlagan temuriylar davri xotin-qizlari

Temuriylar davri siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida xotin-qizlar alohida o'rin tutgan va ayrica izzat-e'tiborga loyiq ko'rilgan. Yetakchi ayollar el-yurt manfaatiga uchun ko'p xayrli ishlarni bajarishgan. Misol uchun, kishilik tarixidagi eng tanilgan ayollardan sanalmish Saroyulkxonim saltanat va jamiyat boshqaruvida buyuk Amir Temurga dono maslahat bera oladigan zukko siymo bo'lgan. Shu bois unga, hatto erkak amaldorlarga ham loyiq ko'rilgan maqom – oliy hukmdorga muhim va qaltilis vaziyatlarda xabar yetkazish, chet ellik siyosatchilar bilan uchrashish, hukmdor va farzandlari, amirlar bilan munosabatlari yuritish huquqi berilgan.

Shuningdek, Shohruh saroyining bosh xonimi Gavharshodbegimda ham bir qancha imtiyozlar mavjud bo'lib, saroyga kelgan mehmonlarni kutib olish, kuzatish, to'y marosimlarini o'tkazish uning zimmasida edi. Xonimning hatto valiahd masalasiga aralashgani, erining vafotidan keyingi yillar siyosiy jarayonlarida ancha faollik ko'rsatgani ham yaxshi ma'lum.

Yana bir muhim jihati, temuriy shahzodalar tarbiyasida malikalarning o'rnini alohida bo'lgan. Amir Temur davrida bunday mas'uliyatli ish bosh malikalarga yuklatilgan. Saroyulkxonim Shohruh, Xalil Sulton, Ulug'bek, Tuman Og'o, Ibrohim Sulton ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullangan, shuningdek, bo'lajak hukmdorlar

harbiy mashg'ulotlariga bosh-qosh bo'lgan.

Malikalar faoliyatini ochib beradigan yana bir asosiy qirra ularning qurilish va obodonchilik ishlariga qo'shgan salmoqli ulushlari bilan bog'liq. Masalan, Saroyulkxonim sa'y-harakatlari bilan Samarqandda oliy darajadagi bino – madrasa qurilgan. Shohi Zinda majmuasida Tuman Og'o barpo ettirgan maqbara va masjiddir. Shuningdek, u Shohruh davrida Qusaviya shaharchasida madrasa, xonaqoh va rabot qurdirgan ham ma'lum. Gavharshodbegim Mashhadada jome masjidi, Hirotda masjid, madrasa, maqbara, xonaqoh qurdirib, musallo majmuasini shakllantirgan. Uning Mashhadada

qurdirgan jome masjidi ko'rib ilhomlangan Shohruh uch ming misqol tilodan ishlangan qandilni masjidda sovg'a qilgan va uning yonida saroy hamda bog' qurishni buyurgan. Gavharshodbegim madrasasi o'z davri va keyingi zamonalar uchun ham yirik ilmiy-ma'rifat markazi hisoblangan.

Shohruhning xotini Malika Og'o va Sulton Husaynning xotini Zubayda Og'o xonaqoh, Sulton Abu Sa'idning xotini Habiba Sulton maqbara qurdirgan. Shuningdek, Tuman Og'o, Malika Og'o, Sulton Og'o hamda Xonim Sultonbegim madrasalar qurishga pul ajratgan. Ushbu ilm maskanlarining moddiy jihatdan bekamu ko'st bo'lishi uchun qishloqlar, yer mulklari, ariqlar, do'konlar va tegimonlarni vaqf qilib bergan.

Qisqacha aytganda, Samarqand, Hirotda, Mashhad va yana ko'plab shaharlar aynan temuriy malikalarning homiyligi ostida go'zallashib, obodonlashib borgan.

Temuriylar davri she'riyatining yuksalishida xotin-qizlarning ham o'z o'rnini bor. Ayniqsa, bu davrda turkiy tilda ijod qiluvchi shoirlar urg'ulaydi. Buni Amir Temur, Shohruh, Mironshoh, Abu Bakr

Alisher Navoiyning "Majolis un-

nafois" ("Nafis majlislar") asarida tilga olingan Mehriy Hirotda yashagan shoira bo'lib, uning turmush o'rtog'i Xoja Abdulaziz Shohruh saroyida tabiblik lavozimida ishlagan. Nihoyatda go'zal bo'lgan Mehriy oqko'ngil, oydufikir, iste'dodli, shirinso'z va hozirjavob bo'lgani uchun malika Gavharshodbegimning yaqin shubhatdoshiga aylangan.

Shuningdek, shoirlarning o'qimishli oilalarda tarbiya topganini ham diqqatdan chetda qoldirib bo'lmaydi. Masalan, Jamoliy Hirotning mashhur shoirlaridan Mavlono Badriddin Hilolning qizi edi. Bibi otun esa Hayot Hirotni nomi bilan mashhur, sufiy va shoir shayx Ozariyning avlodi bo'lib, hirotlik shoir Mavlono Baqoga turmushga chiqqan.

Qayd etish joizki, momolarimiz yurtini qo'riqlash, yovga qarshi kurashish bobida erkaklardan kam bo'lmagan, xususan, nayza ulotirish, qilich bilan jang qilish, o'q o'tishda yigitlardan qolishmagan.

Farida SULTONOVA, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Tarix instituti kichik ilmiy xodimi.



xabarlar

Bokschilarimiz umumjamo'a hisobida birinchi

Braziliyaning Fors-du-Iguasu shahrida boks bo'yicha jahon kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi.



"World Boxing" tomonidan tashkil etilgan ushbu musobaqada O'zbekiston terma jamoasi muvaffaqiyatli qatnashib, 5 ta oltin (-50 kg. Asilbek Jalilov, -75 kg. Fazliddin Erkinboyev, -80 kg. Javohir Ummataliyev, -90 kg. To'rabek Habibullayev, +90 kg. Jahongir Zokirov), 2 ta kumush (-55 kg. Mirazizbek Mirzaxalilov, -85 kg. Akmaljon Isroilov) va 1 ta bronza (-60 kg. Madiyar Daniyarov) medalni qo'lga kiritdi.

Quvonarlisi, bokschilarimiz mazkur natija bilan umumjamo'a hisobida birinchi o'rinni egalladi.

Reklama

"O'ZSANOATQURILISHBANK" ATB:

RAQAMLASHTIRISH OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA'MINLAYDI

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 5-mart kuni o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida bank tizimida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish orqali shaffof moliyaviy muhit yaratishga erishilayotganligi ta'kidlanib, bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish muhimligiga e'tibor qaratildi. Aytish joizki, "O'z sanoatqurilishbank" ATB tizimida ham mazkur yo'nalishda ishlar jadal olib borilyapti va qator ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda.

SANOAT QURILISH BANK

Shu yilning 3-aprel kuni "O'z sanoatqurilishbank" ATB: raqamlashtirish – ochiqlik va shaffoqlikni ta'minlashda yangi bosqich" mavzuida o'tkazilgan matbuot anjumanida shu kabi qator o'zgarishlar va istiqbolda amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan loyihalar haqida fikr yuritildi.

Tezkor va qulay xizmat turi

Bank tizimida raqamlashtirish nafaqat tezkor va qulay xizmat ko'rsatish, balki korruptsiyaga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu maqsadda bank yetakchi xalqaro moliya institutlari, jumladan, Xalqaro moliya korporatsiyasi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda istiqbolli loyihalar ustida ish olib bormoqda.

Natijada qator innovatsion yechimlar amaliyotga joriy etilmoqda. "SQB Mobile" va "SQB Business" ilovalari ishga tushirilgani ham fikrimizning yaqqol tasdig'idir. Hozirgi kunda 1,8 mln. jismoniy shaxs va 27 mingdan ortiq yuridik shaxslar ayni xizmatlardan keng foydalanayotir.

Kredit ajratishning markazlashtirilgan andarraying tizimini joriy qilish hisobiga jismoniy shaxslarning kredit hujjatlari ko'rib chiqilishi 1 soatdan 5 daqiqaga, yuridik shaxslarniki esa 1 kundan 1 soatga qisqartirildi. E'tiborlisi, kredit ajratish jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish hisobiga

Korruptsiyaga qarshi kurash – ustuvor vazifa

Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini kuchaytirish maqsadida qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, moliya muassasasida Korruptsiyaga qarshi kurashish xizmati

yetkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi texnologiyalar istiqboli

Matbuot anjumanida "O'z sanoatqurilishbank" ATB raqamlashtirish, kompyutens nazorat tizimini mustahkamlash va inson omilini kamaytirish orqali ochiq, shaffof va samarali bank tizimini shakllantirish yo'lida katta qadam tashlayotgani qayd etildi. Bu yo'nalishda sun'iy intellekt yordamida risklarni boshqarish, kredit xavflarini kamaytirish va muammoli kreditlar ulushini 20 – 30 foizga qisqartirishga erishilmoqda.

Xususan:

- Call-markaz faoliyatiga sun'iy intellekt (ovozli AI yordamchisi)ni joriy etib, xizmat ko'rsatish xarajatlarini 20 – 30 foizga kamaytirish;
- kredit berish jarayonini to'liq avtomatlashtirish, hujjatlarini tekshirish vaqtini keskin qisqartirish;
- jismoniy shaxslar ta'sischisi bo'lgan korxonalarining kredit tarixi "qoniqarsiz", "shubhali" yoki "umidsiz" deb tasniflansa, ularga kredit ajratishda avtomatik to'sqinlik (stop faktor)ni ishga tushirish;
- "SQB Business" va "SQB Mobile" ilovalari orqali bank xizmatlarini kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu sa'y-harakatlar bank faoliyati ochiqligini ta'minlash, korruptsiyaning oldini olish va mijozlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Matbuot anjumanini muvaffaqiyatli yakunlaydigan muhokamaga boy tarzda o'tdi, unda bank mutasaddi rahbarlari OAV vakillaridan tushgan savollarga batafsil javob qaytardi.

Bank axborot xizmati.
Xizmatlar litsenziyalangan.



korruptsiya holatlarning oldi olinib, byurokratik to'siqlar bartaraf etildi.

Xalqaro pul o'tkazmalari sohasida "SWIFT GPI-treking" va "SWIFT Payment Controls" xizmatlari orqali shaffoqlik va xavfsizlik ta'minlandi. "CROBS" elektron deklaratsiya tizimi yo'lga qo'yilgach xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiya topshirishi avtomatlashtirildi. Bundan tashqari, xarid jarayoni ishtirokchilari – kontragentlarni tekshirish doirasida 20 ta holatda xarid jarayoni tartib-taomillari buzilishi xavfi aniqlanib, bank manfaatlariga 66,7 mlrd. so'm zarar yetkazilishining oldi olindi.

Tadbirkorlik subyektlari bilan bog'liqlikni aniqlash bo'yicha maxsus dastur (modul) yaratilgani ham mijozlarga qulaylik tug'dirmoqda. Bu orqali bank xodimlarining korxonalar ustav kapitali va boshqaruvidagi ishtiroki doimiy monitoring qilib borilmoqda.

tashkil etilib, unga mustaqil nazorat vakolati berildi. Bank xalqaro standartlarga muvofiq ISO 37001-2016 antikorrupsiya sertifikatiga ega bo'lgani ham muhim yangilikdir. 30 nafar xodim Xalqaro kompyutens assotsiatsiyasi (ICA, Buyuk Britaniya) kurslarini tugatib, xalqaro darajadagi sertifikat oldi. Shuningdek, 3 ming 710 nafar xodim manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tekshiruvdan o'tkazildi va aniqlangan holatlar bartaraf etildi.

Eng muhimi, bankning ochiqlik indeksi 2023-yilda 78,1 ball (2022-yili – 71,1 ball) darajaga yetdi. 2023-yilda bank korruptsiyaga qarshi kurash samaradorligi bo'yicha 88 ball to'pladi.

Shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida jurnalistlar va blogerlar ishtirokida "Ochiq eshik kuni" tadbirlari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Bu axborotlarni keng jamoatchilikka

"TRASTBANK" XUSUSIY AKSIYADORLIK BANKI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"Trastbank" xususiy aksiyadorlik banki o'tgan yillar yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning navbatdagi va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlari bayonoma qarorlariga ko'ra, bankning odiy va imtiyozli aksiyalariga hisoblangan dividendlarni o'z vaqtida olmagan bank aksiyadorlaridan dividendlarni olish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (jismoniy shaxslar uchun – pasport yoki ID kartaning asl nusxasi, STIR nusxasi, bankda hisobvoraq ochilganligi to'g'risida tasdiqnomasi nusxasi, yuridik shaxslar

uchun – jamiyat ustavi nusxasi, davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risida guvohnoma nusxasini (litsenziya) taqdim qilgan holda, bankning bosh ofisiga yoki hududiy filiallariga murojaat etishini so'raydi.

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 6-bob 51-moddasiga asosan "Egasi yoki egasining qonuniy huquqliy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch

yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga binoan jamiyat ixtiyorida qoladi".

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi manzilga, xususan, "Trastbank" XAB bosh ofisiga murojaat etishingizni so'raymiz: 100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 7-uy, tel.: 1287, 78-140-00-88.

Bankning elektron pochta manzili: info@trustbank.uz
Rasmiy veb-sayti: www.trustbank.uz

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi – 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostobov.
Musahih Sh. Mashraboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 03.00 Topshirildi – 05.25 1 2 3 4 5 6

"Xalq so'zi".